

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 59 (1658), 2026-yil 27-mart, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON – TOJIKISTON: STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARI YANGI BOSQICHGA KO‘TARILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon 26-mart kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.



Tojikiston Prezidentini “Toshkent — Humo” xalqaro aeroportida davlatimiz rahbari kutib oldi. Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakatning davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo‘ydi.

O‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasidagi yaqinlik, do‘stlik-birodarlik rishtalari mustahkam tarixiy ildizlarga ega. Bir o‘zandan suv ichgan xalqlarimiz tarixi, taqdiri tutash, urf-odatlar, qadriyatlar an‘analari yaqin, maqsadlari mushtarak. Shu bois, azaldan bu ikki xalq o‘rtasida quda-andalik, qarindoshlik aloqalari mustahkamlanib kelgan.

Xalqlarimiz ana shunday yaqinlik, umumiy madaniy makon, qadriyatlar mushtarakligi va qo‘shinlik an‘analari asosida zamonlar osha hamjihat, o‘zaro hurmat va hamkorlikda yonma-yon yashab kelmoqda. Asrlar davomida savdo yo‘llari, ilm-fan markazlari va madaniy muhit xalqlarimizni o‘zaro yanada yaqinlashtirgan, jipslashtirgan.

Ayniqsa, mustaqillik yillaridagi muayyan muddat turg‘unlikdan keyin — so‘nggi 9-10 yilda asiy aloqalar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari izchil kengayib, siyosiy muloqot bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy, transport va gumanitar sohalarda ham aniq natijalarga erishilayotgani fikrimiz tasdig‘idir.

Ko‘ksaroy qarorgohida Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonni tantanali kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qutlab, shohsupaga taklif etdi.

Ikki mamlakatning davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi. Harbiy orkestr ijrosida O‘zbekiston va Tojikiston madhiyalari yangradi.

Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon o‘rtasida tor doirada muzokaralar hamda Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston va Tojikiston 2018-yilda strategik sheriklik aloqalarini o‘rtasidagi yaqinlik, do‘stlik-birodarlik rishtalari mustahkam tarixiy ildizlarga ega. Bir o‘zandan suv ichgan xalqlarimiz tarixi, taqdiri tutash, urf-odatlar, qadriyatlar an‘analari yaqin, maqsadlari mushtarak. Shu bois, azaldan bu ikki xalq o‘rtasida quda-andalik, qarindoshlik aloqalari mustahkamlanib kelgan.

Davlatimiz rahbari ushbu tashrif ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stlik va yaxshi qo‘shinlik munosabatlarini yanada mustahkamlashda muhim bosqich ekanini ta‘kidlar ekan, “Bugun biz Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig‘ilishini boshlab bermoqdamiz. Ushbu format, shubhasiz, ikki tomonlama hamkorlikni sifat jihatidan qayta tiklanib, yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy bosqichda yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari izchil kengayib, siyosiy muloqot bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy, transport va gumanitar sohalarda ham aniq natijalarga erishilayotgani fikrimiz tasdig‘idir.

Oliy davlatlararo kengash O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadigan muhim institutsional tuzilmadir. Mazkur mexanizm ikki tomonlama aloqalarni yuqori darajada muvofiqlashtirish, ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha aniq qarorlar qabul qilish hamda ularning ijrosini tizimli nazorat qilish imkonini beradi. Shu orqali strategik

sheriklik va ittifokchilik munosabatlarini amaliy mazmun bilan boyib, hukumatlar, parlamentlar va idoralar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik izchil rivojlanadi.

Yig‘ilishda aynan shu yo‘nalishdagi imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, hamkorlikni yangi loyiha va tashabbuslar bilan kengaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Tomonlar savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, transport-logistika bog‘liqligini mustahkamlash hamda suv va energetika xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilab oldi.

Tashrifga tayyorgarlik jarayoni ham keng qamrovi hamda amaliy natijalari bilan ajralib turdi. Xususan, Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi o‘tkazilib, unda hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha aniq kelishuvlarga erishildi. Sanoat ko‘rgazmasi tashkil etilib, ikki mamlakat korxonalarini o‘rtasida yangi kooperatsiya aloqalarini yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini muhokama etildi.

Hududlararo va sohaviy muloqotlar doirasida rektorlar, olimlar, yoshlar va tahlil markazlari ishtirokida qator forumlar o‘tkazildi. Ushbu platformalar ilmiy-ta‘limiy almashinuvni kengaytirish, innovatsion loyihalarni ilgari surish hamda ekspert darajasidagi hamkorlikni kuchaytirish borasida muhim ahamiyat kasb etdi.

Madaniy-gumanitar yo‘nalishdagi tadbirlar ham tashrifning muhim qismi bo‘ldi. Xususan, mamlakatimizda Tojikiston madaniyati va kinosi kunlari o‘tkazilyapti. Bu esa ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy yaqinlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilish shubhasiz.

Muzokaralarda savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish masalalarida alohida ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqildi. So‘nggi yillarda ikki mamlakat o‘rtasidagi

tovar ayirboshlash hajmi barqaror o‘shish sur‘atini namoyon etib, o‘tgan yil yakunlariga ko‘ra qariyb 1 milliard dollarga yetgani qayd etildi. Ushbu natijaga, avvalo, tayyor mahsulotlarni o‘zaro yetkazib berish hajmi ortib borayotgani hisobiga erishildi. Tomonlar mavjud salohiyatni inobatga olgan holda, 2028-yilga borib o‘zaro savdo hajmini 2 milliard dollarga yetkazish imkoniyatini atroflicha muhokama qildi.

Savdo-iqtisodiy aloqalar tarkibi ham bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilinmoqda. Bugun sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, elektrotexnika va farmatsevtika kabi qator sohalarda qo‘shma loyihalar amalga oshirilayapti. Mazkur yo‘nalishlarda ishlab chiqarish kooperatsiyasini chuqurlashtirish, qo‘shilgan qiymat zanjirlarini kengaytirish hamda yangi bozorlarni o‘zlashtirish masalalarini kun tartibidan o‘rin oldi.

Transport-logistika sohasidagi hamkorlik ham izchil rivojlanayapti. Hozir ikki mamlakat poytaxtlari o‘rtasida muntazam aviareyslar yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, avtobus va temir yo‘l qatnovlari tiklangan. Bu esa nafaqat yo‘lovchi, balki yuk tashish hajmining ham jadal oshishida muhim o‘rin tutmoqda.

Tomonlar o‘zaro bog‘liqlikni yanada mustahkamlash maqsadida logistika infratuzilmasini rivojlantirish va transport yo‘laklaridan samarali foydalanish masalalarida kelishib oldi.

Xususan, “Oybek — Fotihobod” chegarao‘ldi savdo markazini barpo etishni jadallashtirish, mahsulotlarni sertifikatlash tizimini o‘zaro uyg‘unlashtirish hamda “E-Permit” elektron ruxsatnomalar almashinuvni tizimini joriy etish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Shu bilan birga, chegara nazorat punktlarini modernizatsiya qilish orqali yuk va yo‘lovchi oqimini tezlashtirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni qisqartirish vazifalari belgilandi.

Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish ham alohida e‘tibor markazida bo‘ldi. Tog‘-kon, energetika, qishloq xo‘jaligi, elektrotexnika, yangil sanoat va qurilish sohalarini qamrab olgan alohida Sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilish rejalashtirilmog‘da. Ushbu dastur doirasida yangi qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga start berilishi, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini birlashtirish va texnologik hamkorlikni kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Istiqbolli loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘shma Investitsiya kompaniyasi kapitalini kengaytirish zarurligi ta‘kidlandi. Bu esa yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini tekzor ro‘yobga chiqarish, xususiy sektor ishtirokini oshirish hamda iqtisodiy hamkorlikni yangi darajaga olib chiqish uchun g‘oyat muhim.

Muzokaralarda energetika va suv resurslarini boshqarish masalalarini strategik yo‘nalish sifatida atroflicha ko‘rib chiqildi. Tomonlar suv resurslaridan oqilona va adolatli foydalanish, mavjud infratuzilmani samarali boshqarish hamda energetika xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha o‘zaro kelishilgan yondashuvlarni davom ettirishga tayyor ekanini bildirdi. Shu bilan birga, energetika, jumladan, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va tarmoqlararo integratsiyani

rivojlantirish yo‘nalishlarida istiqbolli loyihalarni ilgari surish masalalarini muhokama qilindi.

Gumanitar, ta‘limiy va ilmiy sohalardagi hamkorlikni kengaytirish masalalarini ham uchrashuv kun tartibidan muhim o‘rin oldi. Tomonlar hududlararo aloqalarni faollashtirish, ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish zarurligini qayd etdi. Rektorlar, olimlar va ekspert doiralari o‘rtasidagi muloqotlar ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi ekanini e‘tirof etildi.

Shuningdek, ikki mamlakat hududida yirik diasporalar mavjudligi inobatga olinib, madaniy va gumanitar aloqalarni yanada mustahkamlash bo‘yicha besh yillik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish taklif qilindi. Ushbu tashabbus doirasida madaniyat, san‘at, ta‘lim va yoshlar almashinuviga oid dasturlarni kengaytirish, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro yaqinlikni yanada mustahkamlash ko‘zda tutilmoqda.

Mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. Tomonlar Markaziy Osiyo mintaqasida shakllanib borayotgan ochiq va konstruktiv muloqot muhitini qo‘llab-quvvatlash, ko‘p tomonlama tuzilmalar va mintaqaviy formatlar doirasida yaqin hamkorlikni davom ettirish muhimligini ta‘kidlandi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini mustahkamlash, umumiy tashabbuslarni ilgari surish va mintaqaviy integratsiya jarayonida faol ishtirok etish bo‘yicha yakkid pozitsiya bildirildi. Zamonaviy tahdid va xatarlarni inobatga olgan holda, xavfsizlik sohasidagi faollashtirish, tegishli idoralar o‘rtasidagi amaliy aloqalarni kuchaytirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Yig‘ilishda Hukumatlararo komissiya hamraisilari — ikki mamlakat Bosh vazirlarining hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari yuzasidan hisobotlari tinglandi. Yakunda erishilgan kelishuvlarning to‘liq amalga oshirilishini ta‘minlash uchun keng qamrovli “yo‘l xaritasi” qabul qilinishi belgilandi.

Yig‘ilish so‘ngida ikki tomonlama hujjatlar imzolash va almashish marosimi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon Strategik sheriklik va ittifokchilik munosabatlarini kengaytirish to‘g‘risida qo‘shma bayonotni imzoladi.

Bundan tashqari, hukumatlar, vazirliklar va idoralar darajasida ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan hujjatlar to‘plami imzolandi.

Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig‘ilishidan so‘ng yetakchilar yirik kooperatsiya loyihalarini ishga tushirish marosimida ishtirok etdi. Davlat rahbarlari 10 ta qo‘shma loyihani boshlab berdi.

Tojikistonda mebel va charm mahsulotlari korxonalarini tashkil etish, maishiy texnika ishlab chiqarishni kengaytirish, to‘qimachilik quvvatlarini barpo qilish, Toshkentda turar joy

majmuasi va savdo obyektlarini qurish hamda Farg‘ona viloyatida konserva mahsulotlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish shular jumlasidan.

Bundan tashqari, Andijon viloyatida sut mahsulotlari, Surxondaryo viloyatida esa meva sharbati va metall briketlar ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.

Shuningdek, Yangi Toshkentdagi ko‘chalardan biriga Dushanbe shahri nomini berishga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston va Tojikiston Prezidentlari taqdimot qilingan loyihalarning amalga oshirilishi ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirishga yuqori sur‘at bag‘ishlashiga ishonch bildirildi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig‘ilishi yakunlari yuzasidan fikrlari bilan o‘rtoqlashdi.

Mamlakatimiz yetakchisi O‘zbekiston birodar Tojikistonning barqaror iqtisodiy o‘shishi ta‘minlash, investitsiyalarni jalb qilish, inflyatsiyani jilovlash va aholining real daromadlarini oshirish borasida erishayotgan yuksak natijalaridan chin dildan mamnun ekanini ta‘kidlandi.

Tojikiston O‘zbekiston uchun ishonchli strategik sherik va ittifokchidir. Mamlakatlarimiz maqsadlari, qarash va intilishlari mushtarak ekanini, ikki tomonlama munosabatlar siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarda jadal rivojlanayotgani ta‘kidlandi.

Parlamentlar va hukumatlar, hududlar rahbarlari va ziyolilar darajasida muntazam uchrashuvlar o‘tkazilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Hozir mamlakatimizda 500 dan ortiq qo‘shma korxonaga faoliyat yuritmoqda. Transport sohasidagi hamkorlik kengayib bormoqda. Poytaxtlar o‘rtasida haftasiga o‘nta aviareys qatnamoqda.

O‘zbekiston Prezidenti sammitga jiddiy tayyorgarlik ko‘rilganini ma‘lum qildi.

Hukumatlararo komissiya yig‘ilishlari, hududlar, rektorlar, olimlar, yoshlar, tahlil markazlarining forumlari, Tojikiston madaniyati va kinosi kunlari, boshqa qator muhim tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Muzokaralar hamda Davlatlararo kengashning birinchi yig‘ilishida keng doiradagi masalalar muhokama qilindi, ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va maqsadlari belgilab olindi.

Barcha darajada faol aloqalarni davom ettirish, xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, jumladan, Maslahat uchrashuvlari va “Markaziy Osiyo plyus” formatlari doirasida muloqotni mustahkamlash muhimligi ta‘kidlandi.

Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish zarurligi ta‘kidlandi. Ikki mamlakat hukumatlariga alohida dastur asosida tovar ayirboshlashni ikki milliard dollarga yetkazish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish topshirildi.

Davomi 2-betda

TAMADDUN

tafakkuri

Ushbu sonda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga maxsus sahifalarimiz orqali tashrif buyurur ekansiz, yurtdoshlarimiz va butun dunyo mamlakatlaridan kelayotgan sayyohlar e‘tiroflari, xorij nashrlarida markaz haqida e‘lon qilingan maqolalar sharhi bilan tanishasiz, majmua ziyoratining tartib-qoidalarini bilib olasiz. Shuningdek, “Vaqt devori” bo‘ylab virtual sayohat qilasiz.



O'ZBEKISTON – TOJIKISTON: STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARI YANGI BOSQICHGA KO'TARILMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Energetika, geologiya, metallurgiya, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika va boshqa sohalarda ikki milliard dollarlik tashabbuslarni qamrab olgan Kooperatsiya dasturi amalga oshiriladi.

Tomonlar ushbu loyihalarni ilgari surish uchun Qo'shma investitsiya kompaniyasining salohiyatidan faol foydalanishga kelishib oldi.

Transport va tranzit sohasiga alohida e'tibor qaratildi. Yuk tashishda elektron ruxsatnoma berish tizimini joriy etish to'g'risida bitim imzolandi. Shuningdek, havo va temir yo'l transporti qatnovlarini kengaytirish hamda chegara o'tkazish punktlarining quvvatini oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Ushbu o'zaro muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlardan asosiy maqsad — biznes va fuqarolar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish drayveri sifatida hududlar salohiyatini ishga solish.

Suv va energetika sohasidagi hamkorlik ikki mamlakat aloqalarining muhim yo'nalishidir.

"Yashil" energetika sohasida yirik loyihalarni birgalikda ilgari surish hamda suv taqsimoti, suv inshootlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish masalalarini muvofiqlashtirishga tayyorlik tasdiqlandi.

Madaniy-gumanitar aloqalar xalqlarimiz o'rtasidagi mustahkam do'stlik ko'prigi bo'lib qolmoqda. Hamkorlik doirasida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy do'stligi haqida film tayyorlandi.

Yillik taqvim asosida ta'lim, turizm va yoshlar yo'nalishlarida faol almashinuvlarni davom ettirish niyati bildirildi.

Ikki mamlakatdagi yirik o'zbek va tojik diasporalarini qo'llab-quvvatlash, madaniy markazlarni keng rivojlantirish, ona tili, an'ana va urf-odatlarini asrab-avaylash maqsadida Madaniy-gumanitar sohada hamkorlik bo'yicha kompleks dastur tayyorlanadi.

Yakunda ushbu tarixiy tashrif natijalari ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlab, birodar mamlakatlarimiz barqaror rivojlanishi va ravnaqiga har tomonlama xizmat qilishi qayd etildi.

Tashrif doirasida Tojikiston Respublikasining Toshkent shahridagi elchixonasi yangi binosi ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosim ham bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz joriy yil 26-27-fevral kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurgan edi. O'shanda kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash kabi muhim vazifalar ko'rsatib o'tilgandi. Shuningdek, mamlakatimiz yetakchisi Jarqo'rg'on tumanida qurilayotgan "Yangi O'zbekiston" massiviga borib, aholi bilan muloqot qilgan edi. Mazkur tashrif viloyat ahliga ko'tarinki kayfiyat berib, islohotlarga yangicha ruh bag'ishladi. Surxondaryo aholisining farovonligi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Keyingi yillarda yurtimizdagi islohotlar markaziga inson qadri, manfaat va farovon hayoti qo'yilaydi. Bu tamoyil, ayniqsa, mahallalardagi amaliy ishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Boisi, mahalla faqat hudud emas, balki odamlarni birlashtirgan, ularning hayoti, orzu-umidlari, quvonchi va tashvishlarini o'zida mujassam etgan maskandir.

Surxondaryoda mahalla infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilaydi. Bugun viloyatdagi 723 ta mahallaning 48 tasi chegaraga yaqin va markazdan olis hududlarda joylashgan. Jumladan, Uzun tumani mamlakatimiz poytaxtidan 800 kilometr, Surxondaryo viloyati markazi Termiz shahridan 200 kilometr olisda joylashgan. Qo'shni Tojikistonga chegaradosh bu tuman mamlakatimizning chekka hududlaridan bo'lsa-da, u yerda katta o'zgarishlar, islohotlar natijasi bo'y ko'rsatib turibdi.

Xususan, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish borasida keng ko'lami ishlar qilinayapti. Yangi yo'llar, piyodalar yo'lakchalari yotqizilmoqda. Ko'chalarda tungi yoritqichlar o'rnatilmoqda. Bu ishlar hudud qiyofasini ko'rkmalashtirish barobarida odamlarning xavfsizligi va qulayligiga ham xizmat qiladi. Shu kunlarda tumaning Obod yurt mahallasi hududida ham bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari jadal bajarilmoqda. Jumladan, "Tashabbusli budget" dasturi doirasida ariqlarni betonlash, o'rindiqchalar o'rnatish hamda piyodalar yo'lgi yotqizish ishlari boshlangan.

Prezidentlar ramziy tasmani kesib, diplomatik vakolatxonaning yangi binosini tantanali ochdi.

Yetakchilar elchixonaga va konsullik bo'limining ma'muriy binolari, elchi qarorgohi, diplomatlar va ularning oila a'zolari uchun turar joylarni qamrab olgan majmuani ko'zdan kechirdi.

Marosim yakunida Prezidentlar Faxriy mehmonlar kitobida qayd yozib, diplomatik vakolatxonaga hududiga daraxt ekdilar.

Prezidentimiz Tojikistonning yangi qurilgan elchixonasi faoliyatiga baho berib ekan, bu dargoh ikki xalqning orzulariga xizmat qilsin, deya samimiy, do'stona tilaklarini bildirdi.

Ushbu tadbir O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnihilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga o'zaro intilish qat'iy ekanini yana bir bor tasdiqladi.

2024-yil 19-aprelda Prezidentimiz Tojikistonga davlat tashrifi doirasida mamlakatimizning Dushanbe shahridagi elchixonasi yangi binosining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tgandi.

Har ikki davlatda elchixonalar binosining yangilanishi mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani bilan bog'liq. Xususan, 2025-yili Tojikistondan mamlakatimizga sayyohlik maqsadida qariyb 2 million 700 ming kishi kelgan. O'zbekistondan Tojikistonga borgan fuqarolar soni esa 1 million 307 mingdan ziyodni tashkil qilgan.

"O'zbekiston" xalqaro forumlar saroyida ikki mamlakat san'atkorlari ishtirokida tashkil etilgan do'stlik konsert dasturi ham tashrif doirasidan o'rindi. Prezidentlar ikki xalq ardog'idagi san'atkorlar ishtirokida o'tkazilgan konsertni birgalikda tomosha qildi.

Konsert dasturida birodar xalqlarimizning betakror va boy madaniyatini aks ettiruvchi milliy musiqa va sahna san'atining eng sara asarlari ijro etildi.

O'zbekiston va Tojikiston san'atkorlari hamda ansambllarining birgalikdagi chiqishi o'zaro anglashuv, ma'naviy yaqinlik va faol madaniy muloqot ramzi bo'ldi. Zero, ikki til, bir ohangda ijro etilgan kuy-qo'shiqlar o'zbek va tojik xalqlarining ikki xalq-u bir jon ekanining yaqqol tasdig'idir.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning mamlakatimizga davlat tashrifi davom etmoqda.

Avazbek XUDOYQULOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

3,5 MING MEGAVATTLI "YASHIL" QUVVATLAR

7 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi
va havoga 11 million tonna zararli moddalar
chiqishining oldi olinadi

Dunyo juda tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Energiya resurslariga talab oshayotgan bir sharoitda modernizatsiyalangan va diversifikatsiya qilingan energetika tizimlarini yaratayotgan davlatlar eng katta ustunlikka ega bo'lmoqda. Energetika sohasidagi tizimli ishlar iqtisodiyotning barqaror o'sishini, yangi ishlab chiqarish obyektlarini qo'llab-quvvatlash, mahsulot tannarxini qisqartirish, hududlarni rivojlantirish va aholi uchun uzluksiz energiya mavjud bo'lishi kabi muhim omillarni ta'minlaydi.

Bu esa, o'z navbatida, islohotlar samaradorligini va biznesning ishonchligini belgilaydi. Shu bois, O'zbekiston hozirgi kunda energetika sohasiga alohida e'tibor qaratmoqda va unga mamlakatni modernizatsiya qilishning fundamental asosi sifatida qarayapti.

Biroq bugungi natijalarga erishish yo'li oson bo'lmagan. O'tmishdagi obyektiv va subyektiv omillar bir necha o'n yillar davomida tizimli muammolarni shakllantirgan va mamlakat rivoji uchun jiddiy to'siqqa aylangan. Eskirgan infratuzilma tufayli ayrim hududlarda tarmoqlardan foydalanish darajasi 50-60 foizni tashkil qilib, doimiy avariya holatida bo'lib, uzatishlarda katta yo'qotishlarga olib kelgan.

Ma'muriy boshqaruv modeli ustuvor bo'lib, resurslarni tejaydigan bozor imtiyozlari deyarli yo'q edi. Joriy tarifiar uzoq vaqt davomida energiyaning asl qiymatini belgilab berolmas, bu esa investitsiya va modernizatsiya jarayonlariga ta'sir qilmasdan qolmasdi.

Tarmoqlarda yuqori texnologik yo'qotishlar bo'lib, energiya hisobi talabga javob bermas, xususiy sektorning sanoatdagi ishtiroki cheklangan edi. Bularning barchasi energiya ta'minoti barqarorligiga va iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qilardi.

2017-yildan vaziyat keskin o'zgardi. Prezidentimiz tashabbusi bilan energetika sohasini rivojlantirish, tejamkor texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy energiya bozorini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Mazkur tarmoqda keng ko'lami tizimli islohotlar davri boshlandi. Qonunchilik bazasi yangilandi, energiya ishlab chiqarish, uzatish va sotish funksiyalari bir-biridan ajratildi. Raqobatni ta'minlash hamda xususiy sektor, xorijiy investitsiya jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Yangi ishlab chiqarish quvvatlari, jumladan, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Issiqlik elektr stansiyalari va tarmoqlari modernizatsiya qilinayapti. Shu bilan birga, iqtisodiyotning energiya yuklamasini kamaytirish bo'yicha tizimli ishlar bajarilmoqda.

Yangicha yondashuv strategik rejalashtirish, bozorlarni ochish, xalqaro kapitalni jalb qilish va

zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida yaratildi.

Boshqaruv choralari orasida eng muhimi generatsiya quvvatlarini modernizatsiyalash va kengaytirish bo'yicha davlat dasturlari qabul qilingani bo'ldi. Yuqori energiya samaradorligiga ega zamonaviy gaz stansiyalari qurildi. Bu yilga milliardlab kub metr gazni tejash imkonini berdi.

Elektr tarmoqlari infratuzilmasi qayta qurildi va modernizatsiya qilindi. Minglab kilometr uzatish liniyalari tortildi. Podstansiyalar ta'mirlandi, raqamli boshqaruv tizimlari joriy etildi. Natijada mamlakatimizda elektr energiyasi bo'yicha jami generatsiya quvvatlari 25,8 ming megavattga yetdi. Shundan quyosh, shamol va gidroenergetika 8 ming megavattni, ya'ni umumiy hajmning 31 foizini tashkil etmoqda.

Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish nazarda tutilgan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 34,8 foizga yetkazish, bunday qurilmalarni o'rnatgan korxonaga va tashkilotlar, aholi turar joylarida manbaning ishlab samaradorligini va erishilgan natijalarni doimiy monitoring qilib borish shular jumlasidandir.

Yana bir muhim jihat. Joriy yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini 90 milliard kilovatt-soatga yetkazish rejalashtirilgan bo'lib, bu 2020-yildagiga nisbatan 40 foiz o'sish demakdir. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish hamda tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmlari oshishi hisobiga elektr iste'moli yana 1 milliard kilovatt-soatga ortishi kutilmoqda.

Eng muhimi, aholi va iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ravishda energiya resurslarini uzluksiz yetkazib berish, tarmoqlarni yangilash, investitsiyani ko'paytirib, yirik loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish birinchi navbatdagi vazifalar sirasidandir.

Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomasida so'nggi besh yilda 6 ming megavattli quyosh, shamol va gidroelektr



stansiyalar ishga tushirilgani, umumiy generatsiyada "yashil" energiyaning ulushi 30 foizga yetganini qayd etdi. Shuningdek, yaqinda jami 3,5 ming megavattli 4 milliard 200 million dollarlik yangi "yashil" quvvatlar qurilishiga start berilgani, natijada 2026-yilning o'zida 7 milliard kub metr tabiiy gaz tejalishi va havoga 11 million tonna zararli moddalar chiqishining oldi olinishini ma'lum qildi.

Darhaqiqat, energetika tizimi islohoti Prezidentimizning doimiy nazoratida bo'lib, bu jarayonlarga yuqori sur'at va mas'uliyat bag'ishlamoqda. Natijada O'zbekistonning energetika sektori izchil, uzoq muddatli iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanyapti.

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 23-fevral kuni yirik energetika loyihalarini amalga oshirish, energiya tizimi barqarorligini ta'minlash va energiya samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda soha oldida turgan dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Asosiy, quvvatlarining ekologik toza turlari, quyosh va shamol energiyasini mamlakat iqtisodiyoti uchun haqiqiy kuchga aylantirish vazifasi belgilandi.

So'nggi yillarda mintaqada eng yirik quyosh elektr stansiyalari qurildi. Shamol energetikasiga oldi qator yirik loyihalar amalga oshirildi. Shuningdek, samarali balanslash uchun energiya zaxiralari yaratish boshlandi. O'tgan yil 5-dekabrda Prezidentimiz yangi energetika quvvatlari va infratuzilma obyektlarini ishga tushirish marosimida so'nggi yillarda energetika tizimiga 35 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi, 9 ming megavatt yangi quvvat ishga tushirilganini qayd etgandi.

Natijada elektr ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 60 milliard kilovatt-soatdan joriy yilda 85 milliard kilovatt-soatga yetdi.

Shuningdek, qariyb 11 milliard dollarlik yuqori 42 ta energiya ishlab chiqarish obyekti, saqlash quvvatlari va boshqa infratuzilma inshootlari foydalanishga topshirildi, 21 ta yangi loyiha qurilishga start berildi. Ushbu loyihalar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, hududlarda uzluksiz energiya ta'minoti, ishlab chiqarish quvvati hamda qishloq va sanoat sektori uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bu esa milliy energetika tarmog'i salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lami strategiyaning bir qismidir.

Ayni paytda yo'qilg'i-energetika majmuidagi investitsiya portfeli 133 ta loyihani qamrab olgan bo'lib, umumiy qiymati 51,4 milliard dollari tashkil etmoqda, — deydi energetika vaziri Jo'rabek Mirzamahmudov. — Shundan 43 milliard dollarlik 73 ta yirik loyiha bo'yicha tizimli yondashuv qilib, yil yakuniga qadar 6770 megavatt yangi quvvatlar ishga tushiriladi. Bu loyihalar deyarli barcha hududlarni qamrab olgani bilan ahamiyatlidir.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Prezident tashrifidan so'ng

OBOD BO'LAYOTGAN JAMIYAT TAYANCHI



Loyiha doirasida velosipedchilar, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus yo'laklar quriladi, 1300 metr uzunlikdagi ariq betonlanadi, quyosh panelli yoritqichlar o'rnatiladi. Shuningdek, talab etilgan joylarga simyog'och, o'rindiq, yo'l belgilari, o'nga yaqin videokamera o'rnatish rejalashtirilyapti. Shu tariqa mahalladagi ko'p yillik muammolarga amaliy yechim topilmoqda.

Uzun tumaning Mehnat mahallasi ahli ham bir yoqadan bosh chiqarib, "Tashabbusli budget" dasturida ishtirok etgan va loyihasi g'olib deb topilgan edi.

Mahallamizda rejaga muvofiq, 1 milliard 405 million so'mlik ishlar qilinishi, jumladan, 125 ta quyosh panelli yoritqich, 60 ta beton ustun, 16 ta videokamera o'rnatish, 2,6 kilometrga elektr tarmog'i tortish belgilangan. Hozir bu bo'yicha amaliy harakatlar davom etmoqda, — deydi "Mehnat" MFY raisi Shamsiddin Boboyev. — Ariqlar tozalanib, zamonaviy talablar asosida betonlandi. Bu esa aholi tomorqalarini sug'orishda ham katta qulaylik yaratmoqda. "Mahalla yettilligi" va faollari, homiyilar va mas'ul tashkilotlar hamkorligida qilinayotgan

esa aholining erkin harakatlanishi, bolalarning maktabga borib-kelishi, keksalarning bemaol sayr qilishi uchun juda muhim. Bundan tashqari, zamonaviy, energiya tejamkor yoritqichlar o'rnatilgani qulaylik yaratish bilan birga hududda xavfsizlikni ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega.

Yangi kuch mahallasida ham 2025-yilda qator ishlar qilindi. Jumladan, yo'llar kengaytirilib, yoritqichlar ko'paytirildi, piyodalar yo'lgi qurildi. Joriy yilda esa nuroniyalar choyxonasi barpo etilyapti. Mahalla guzari kelgusida otaxonu onaxonlar uchun ma'naviy subhatlar uyushtirish va mazmunli dam olish uchun munosib maskan bo'lib xizmat qiladi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, jumladan, ko'zi ojiz va nogironligi bo'lgan shaxslar bilim olishi, axborotga erkin ega bo'lishi va ma'naviy dunyoqarashini boyitishi uchun zamonaviy elektron kutubxonaga barpo qilinayapti.

Loyiha asosida zamonaviy elektron kutubxonaga tashkil qilinib, xonalar maxsus jihozlanadi. Zamonaviy kompyuterlar, nutq orqali ishlaydigan dasturlar, audiokitoblar bazasi hamda brayl yozuvidagi adabiyotlar

bu ishlarni aholi ham qo'llab-quvvatlamoqda. Bugungi odamlar kechagidek befarq emas, aksincha, uyg'oq, dunyoqarash keng.

"Mehnat" MFY ko'chalari bo'yilab yangi piyodalar yo'lakchalari yotqizilmoqda. Bu





TAMADDUN



tafakkuri

Bu maskan bilan tanishgan har bir odam, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz islom dinining gumanistik mohiyatini anglab yetadi, o'zining qanday ulug' meros egasi ekanini his etib, qalbi g'urur va iftixorga to'ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



Ulug' meros g'ururi

ILM-MA'RIFAT YADROSI

Prezidentimizning megaloyihalaridan biri — to'qqiz yillik mehnat va izlanishlar samarasi bo'lgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ochildi. Muhtasham majmuani kelib ko'rayotgan yurtdoshlarimiz quvonchi va iftixorini yashira olmayapti. Ayniqsa, uzoq-yaqindan kelgan sayyohlarning ko'zidagi hayrat va e'tiroflar ana shu tuyg'uni chandon oshiryapti. Jamiyat birdamligida esa umumiy iftixor tuyg'usi hal qiluvchi kuchga ega. Zero, u tarixiy birdamlikni eslatib, umumiy kelajakka katta ishonch beradi. Shu ma'noda, Islom sivilizatsiyasi markazi o'zining birlamchi vazifasini bajarib, jamiyatimizda birdamlik ruhini yanada kuchaytirdi.

Megaloyihadan ko'zlangan yana bir maqsad ajdodlarimiz tarannum etgan ma'rifatni dunyoga tanitish edi. Ayni paytda ularga munosib avlod bo'lib, ilm-ma'rifatda yetakchilik qilishga intilishimiz zarur. Buning uchun yoshlarni shu ruhda kamol toptirish, Islom sivilizatsiyasi markazining imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanishimiz kerak. Uning ilmiy bazasi bilan bir paytda har bir chizig'i, naqshi, muzeydagi eksponatning mazmun-mohiyatini o'rganish va xalqimizga yetkazib berishimiz lozim.

Davomi 5-beta

Minbar

MUAZZAM KOSHONA



Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi xalqimiz madaniy hayotidagi katta voqea bo'ldi. Bu mahobatli imorat ikki-uch yilda qurib bitkazilishi mumkin edi, ammo davlatimiz rahbarining shoshilmasdan, har tomonlama ilmiy yondashuv asosida bunyod etish bo'yicha topshirig'i ajdodlarimiz qoldirgan ko'p asrlik ilmiy-adabiy merosning tarqalish geografiasini o'rganish, moddiy-ma'naviy madaniyatimiz namunalari yig'ish va tizimlashtirish kabi yuzlab ilmiy loyihalarni amalga oshirish imkonini berdi.

Bunday majmua, muzey-kutubxonalar juda ko'p mamlakatda bor. Har bir inshooting arxitekturaviy yechimi o'ziga xos. G'oyaning ahamiyati nomi va sarflangan mablag' bilan belgilanmaydi, mazmuniga qarab baholanadi. Majmuaning Islom sivilizatsiyasi markazi deb atalishining sababi tarixiy xotiramiz bilan bog'liq. Biz bobolardan "Islom dini Arabiston yarim orolida paydo bo'ldi, ammo uning ilm-fani Movarounnahrda yuksaldi" degan gapni ko'p eshitganmiz, lekin uning haqiqat ekanini mustaqillikka erishgandan so'ng angladik.

Davomi 4-beta

Jahon matbuotida

ILMIY MULOQOT VA HAMKORLIK UCHUN ZAMONAVIY MAYDON

Jahonning yetakchi xalqaro ommaviy axborot vositalari — "CNN", "Forbes", "The Wall Street Journal", "The Economist", "Arab News" va "China Daily" kabi nashrlar ushbu loyihani "global miqyosdagi megaloyiha", "Markaziy Osiyoning durdonasi" hamda "islom sivilizatsiyasiga zamonaviy qarashni shakllantiradigan makon" sifatida baholadi.

O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi xalqaro jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Jahon OAV diqqati unga qaratildi. Markaz eshiklari ochilgan dastlabki kunlarda u haqdagi materiallar 20 dan ortiq davlatda va 7 (ingliz, arab, ispan, xitoy, hind, turk va rus) tilda chop etildi. Nashrlarning umumiy auditoriyasi 1,5 milliarddan ortiq kishini qamrab oladi. Materiallar xalqaro jurnalistlar, tahlilchilar va ekspertlar tomonidan tayyorlangan bo'lib, bu loyihaga nisbatan global professional hamjamiyatning qiziqishi yuqoriligini ko'rsatadi.



Xalqaro OAV ushbu voqeaning ramziy ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, "Arab News" nashrining ta'kidicha, "O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan barpo etilgan markazning ochilish marosimi muqaddas Ramazon oyiga to'g'ri kelgani, xuddi sakkiz yil avval birinchi tamal toshi qo'yilgani kabi unga alohida tarixiy-ruhiy izchillik bag'ishlaydi". "Khaleej Times" esa markazni "ilg'or texnologiyalar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar uyg'unlashgan noyob makon" sifatida ta'riflaydi.

The Pearl of Central Asia: Opening of the Islamic Civilization Center in Tashkent



Davomi 6-beta

MUAZZAM KOSHONA

Boshlanishi 3-betda

Yurtimizdan chiqqan Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oni va Abu Nasr Forobiy kabi mutafakkir olimlarning tadqiqotlari islom bag'rida turib dunyoviy fanlarni rivojlantirdi. Ular turli sohalardagi kashfiyoti bilan jahon sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirdi. Imom Buxoriy, Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur Moturidiy kabi zotlar islom naqliga fanlari, islom qonunchiligi, islom teologiyasi kabi ilmlar taraqqiyotiga bemisli hissa qo'shdi. Ular taqdir taqozosiga ko'ra arab tilida yozdi, dunyo ularni arab olimi sifatida qabul qildi. Ulardan keyingi davrlarda yashab o'tgan qanchadan-qancha mutafakkir ajdodlarimiz arab tili bilan birga fors tilida ijod etdi. Vaqt o'tib, turkiy tilda ham ijod qilish davri boshlandi. Butun dunyo ularni e'tirof etib keldi, faqat biz bexabar edik.

Qariyb 70 yil davomida kommunistik mafkura senzurasini tariximizni xolis o'rganishga yo'l qo'ymadi, muayyan maqsadlar bilan tariximiz soxtalashtirilgan holda ongimizga singdirildi. Natijada butun bir avlod o'z xalqiga tegishli buyuk ilmiy-adabiy merosdan bexabar va bebahra ulg'aydi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng bu sohada katta ilmiy izlanishlar qilindi. Yuzlab olimlar va shoirlar san'atkorlarning ilmiy-adabiy merosi aniqlandi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab Prezidentimizning farmon va qarorlari asosida dunyoga sochilib ketgan qo'lyozma asarlarni izlab topish, unutilgan xalq amaliy san'atini tiklash, an'ana va qadriyatlarimizga yangi hayot bag'ishlash ishlari boshlandi.

Davlatimiz rahbari Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish tashabbusini ilgari surdi. Tarixiy xotirani tiklash, yosh avlodni milliy qadriyatlarini e'zozlash ruhida tarbiyalash va Uchinchi Renessans uchun zarur intellektual muhit yaratish kabi uch dolzarb masala davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Xalqimiz yaratgan ulkan ilmiy-madaniy merosga aloqador minglab noyob ashyolar sakkiz yil mobaynida yig'ildi, yurtimizdan chiqqan yuzlab olimlar, shoirlar, san'atkorlarning hayoti va faoliyati bo'yicha ma'lumotlar to'plandi.

Birgina Misning Aleksandriya kutubxonasida saqlanayotgan qadimiy qo'lyozma asarlar asosida tayyorlangan "Markaziy Osiyo olimlari ensiklopediyasi"da VIII asrdan XIX asrgacha O'zbekiston hududida tug'ilib, turli arab o'lkalarida ilm bilan shug'ullangan 2700 olim haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

2016-yili Samarqandda nashr etilgan "O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi"da



Shuhrat SIROJIDDINOV,
akademik

O'zbekiston hududida tug'ilgan 600 dan ziyod din olimiga doir qisqa ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, falsafa, adabiyot, san'at sohasida nomi va asarlari aniqlangan bo'lsa-da, shaxsi bo'yicha chuqur tadqiqot o'tkazilmagan yuzlab olim va ijodkorlar yashab o'tgani aniqlandi.

Bugun ularning qaysi tilda asar yozganiga qarab, millatini aniqlashga urinish tarixni bilmaslikdan boshqa narsa emas. U davrlarda islom diniga e'tiqod qiluvchi barcha xalq bir millatga — islom millatiga mansub deb

“ Birgina Misning Aleksandriya kutubxonasida saqlanayotgan qadimiy qo'lyozma asarlar asosida tayyorlangan “Markaziy Osiyo olimlari ensiklopediyasi”da VIII asrdan XIX asrgacha O'zbekiston hududida tug'ilib, turli arab o'lkalarida ilm bilan shug'ullangan 2700 olim haqida qisqacha ma'lumot berilgan. ”

hisoblangan. Umuman olganda, VIII asrdan XX asrgacha Markaziy Osiyo xalqlari shu qadar aralashib ketganki, bugun ularning millati borasida bahs yuritish foydasiz. Bir haqiqatni bilishimiz kerak: ajdodlarimiz qayerda yashamasin, umri qayerda yakun topmasin, tug'ilgan joyini, Vatanini qayd etib, nomiga qo'shib (nisba) yozgan. Shundan biz Imom Buxoriyning Buxorodan, Moturidiyning Samarqandning Moturid qishlog'idan ekanini anglaymiz. Shunday ekan, biz — qadim Movarounnahrning bugungi vorislari ulug' bobolarimiz bilan faxrlanishga, g'ururlanishga to'la ma'naviy haqlimiz.

Xalqimiz ko'p asrlik taraqqiyoti jarayonida uch tilli xalq bo'lib shakllangan. Ilmiy asarlar arab tilida, poeziya fors va turkiy tilda bitilgan. Bu an'ana XX asrgacha so'ngani yo'q. Bunday

ulkan ma'naviy merosni yuzaga chiqarish bo'yicha har tomonlama chuqur tadqiqot o'tkazish markaz zimmasiga yuklangan. Aholi, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida o'tmish mutafakkirlarimiz, buyuk bobolarimizning hayoti va faoliyati namuna bo'lish nuqtayi nazaridan katta ma'rifiy ahamiyatga ega.

Islom sivilizatsiyasi markazi, ayrimlar taxmin qilganidek, diniy markaz emas. Islom sivilizatsiyasi nomi ostida yurtimiz islomlashtirilgan VIII asrdan boshlab xalqimizning bugungacha davom etib kelayotgan madaniy va ma'naviy taraqqiyoti nazarda tutilgan. Qisqasi, bu markaz xalqimizning ko'p asrlik madaniyati, ilm-fani, adabiyoti va san'atini namoyish etuvchi o'ziga xos tarbiyaviy-ma'rifiy majmua va tadqiqot markazidir.



Dildagi gaplar

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi mamlakatlar, insoniyat tinchlik, hamjihatlik, bag'rikenglikni mustahkamlashga katta ehtiyoj sezayotgan shu kunlarda o'ziga xos ma'rifat mash'ali vazifasini bajara boshladi. Ko'plab yurtdoshlarimiz, xorijlik sayyohlar muhtasham majmuaga borib, undagi ma'rifat, ma'naviyat, madaniyatdan bahramand bo'lib kelmoqda. Ziyoratchilarning ko'zidagi hayrat, so'zidagi hayajon, mamuniyat bizni ularning fikriga quloq tutishga undadi.

MING MARTA ESHITGANDAN, BIR MARTA KO'RGAN AFZAL

Habib ABDIYEV,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti prorektori:

— Islom sivilizatsiyasi markaziga kirgan zahoti inson go'yo vaqt chegaralaridan chiqib, buyuk tarix va ma'naviyat olamiga kirib qolganek bo'ladi. Bu oddiy muzey emas, balki tarix, ma'naviyat va ilmiy birlashtiruvchi markaz bo'libdi. Uning binosi milliy me'morchilik an'analari va zamonaviy uslublarni uyg'unlashtirgan holda barpo etilgan.

Markazdagi zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, diqqatga sazovor. Interaktiv ekranlar, multimediali vositalar orqali ma'lumotlar jonli va tushunarli taqdim etilgan. Bu yosh avlod uchun bilimni oson va qiziqarli qabul qilish imkonini beradi. Har bir bino, har bir zal va har bir eksponat insonni o'zlik va ma'naviyat haqida o'ylashga chorlaydi.

Nodira Safarova,
pedagog:

— “Ming marta eshitgandan, bir marta ko'rgan afzal” degan naql bor. Xalqimizning uch ming yillik tarixini jonli tarzda, Birinchi va Ikkinchi Renessans, poydevori qo'yilayotgan Uchinchi Renessans istiqbolini ushbu mamlakatda his etish mumkin. Bularning barchasini sanoqli soatlarda to'liq ko'rib, anglash

qiyin. Shu ma'noda, bu yerga qayta-qayta kelish kerak. Shundagina har safar yangi ma'nolar uqib, yangi bilimlarni egallayverar ekansiz. Islom sivilizatsiyasi markazi shunga to'liq munosib. Talabalarimizni ham ushbu ajoyib majmuaga olib kelishni niyat qildim.

Ikrom Sobirov,
tadbirkor (Tojikiston, Xo'jand shahri):

— Birinchi bor bu yerga kelgan kishini majmuaning ulkanligi, shakli-shamoyili, sharqona bezaklariyu ranglari hayratga soladi. Ekspozitsiyalar bilan tanisha boshlagach, majmua ham shaklan, ham mazmunan juda mukammallikka intilib barpo etilganiga guvoh bo'lasiz. Qadimgi qo'lyozmalar ham shunchaki o'sha davrda bitilgan oddiy kitob emas, balki yuksak xatlotlik, kitobat san'ati namunasi. Shu bilan birga, diniy, tarixiy

va ilmiy jihatdan ham katta qiymatga egaligini tez anglab olasiz. Bu yerdagi har bir eksponat xalq e'tiboriga foydali, manfaatli shaklda havola etilgan. Tarixga chuqur hurmat ifodasi o'laroq, bu maskan jahon sivilizatsiyalarini o'rganish, targ'ib etishga undaydigan maktabdir.

Rustam BOYTO'RA
yozib oldi.

EKSPONATLAR BUYUK O'TMISH VA MILLIY O'ZLIGIMIZ TIMSOLI

- Qur'oni karim zalidagi gumbaz ostida maxsus mepping shou-gologramma o'rnatilgan bo'lib, unda samodagi yulduzlar namoyon bo'ladi. Ular Toshkent osmonida tunda ko'rinadigan yulduzlar xaritasi asosida aks ettirilgan.
- Shon-sharaf zalidagi har bir ravoq ostida maxsus sensorli ekranlar o'rnatilgan. Ularda buyuk ajdodlarimizning sun'iy intellekt yordamida yaratilgan siymosi joylashtirilgan. Mehmonlar ularning hayoti va faoliyati haqidagi hikoyalarni 10 ta tilda tinglashi mumkin.
- “Ikkinchi Renessans” ekspozitsiyasida Bibixonning mundan yasalgan haykali ham joylashtirilgan. Uning bo'y-basti, bosh kiyimi, liboslarining rangi, bichimi aynan ispan elchisi va sayyohi Rui Gonsales de Klavixo tasvirlaganidek ishlangan.
- Xalqaro UNESCO va ICOM tashkilotlarining talablari hamda dunyoning eng mashhur muzeylari tajribasiga asoslangan holda markaz ekspozitsiyalarining 8 yo'nalishdagi etiketaj etalonlari va tasniflari ishlab chiqildi.
- “Birinchi Renessans” ekspozitsiyasida somoniylar maqbarasi, Mag'oki Attoriy masjidi, Chashmai Ayyub yodgorligi, Qusamiya madrasasi singari yodgorliklarning mukammal maketi joylashtirilgan.
- O'tgan yili Buyuk Britaniyadagi “Sotheby's”, “Christie's” singari auksion uylari, art dilerlardan 700 dan ortiq artefakt sotib olindi. Shuningdek, turli muassasalar, tashkilotlar, homiylar tomonidan 1000 dan ortiq artefakt hadya qilindi.
- Kutubxonada Yevropa nodir nashrlari mavjud. Musulmon sulolalari, turkiy xalqlarning tarixi, Sharq xalqlariga oid ensiklopediyalar hamda Xuroson va Movarounnahr haqidagi sayohatnomalarning XX asrgacha bo'lgan davrda chop qilingan nashrlari shular jumlasidan.
- “Birinchi Renessans” ekspozitsiyasida shu paytgacha ilmiy merosi yetarlicha o'rganilmagan Qusam ibn Abbas, Abu Hafs Kabir kabi ulug' shaxslar haqidagi ma'lumotlarga alohida e'tibor qaratilgan.
- Markazda Dalvarzintepadan topilgan shaxmat donalari — dunyodagi eng qadimgi topilmalar ham saqlanadi. Ular Hindistondan topilgan shaxmat donalaridan 4 asr oldin yasalgani aniqlangan.
- Majmuada 1589-yili xattot Sulton Muhammad sakkizburchak shaklida ko'chirgan va tumor sifatida ham ishlatgan “Bozuband” Qur'on qo'lyozmasi, XVII asrga mansub, safaviy davri xattotlik va kitobat san'atining yetuk bosqichini aks ettiruvchi juda nafis bezakli nusxa, 1872-yili xattot Muhammad ibn Abdulhadiy mag'ribiy xat uslubida ko'chirgan noyob qo'lyozma, XII-XIII asrlarda saljuqiylar davrida xattot Muhammad Sodiq ibn Muhammad Shofiy nasx xatida ko'chirgan va satrlar orasiga forsiy tarjimai berilgan nodir nusxalar alohida qimmatga ega qo'lyozmalar sirasiga kiradi.

ILM-MA'RIFAT YADROSISI

Markaziy Osiyoda o'xshashi yo'q ushbu kutubxona eng zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan. Hozir uning fondida 45 ming 150 tadan ziyod adabiyot bor. Bu juda katta ilmiy xazira degani.



Ulug' meros g'ururi

Boshlanishi 3-betda

Davlatimiz rahbari markazni ochib berish marosimida bunday dedi: "Bu ulkan loyiha oddiy bir chizma emas. Uni yurak chizgan, mehr chizgan, orzu va amonlar chizgan. Qur'oni karim saqlanadigan muqaddas zal ham shunchaki yaratilgan emas. U yurakdan tug'ilgan, xalqimizning orzu-intilishlari va buyukligini namoyon etish istagidan paydo bo'lgan maskandir. Bu loyiha buyuk xalqimizning asl qiyofasini ro'yog'ga chiqarishga qaratilgan ezgu niyatlar mahsulidir".

Markaz imkoniyatlari, mazmun-mohiyatini uning yuragi deya atalgan Qur'oni karim zali misolida tushuntirish, ushbu zalda Usmon Mus'hafi munosib o'rin egalladi. Mazkur qo'lyozma atrofida somoniyalar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, temuriylar va boshqa tarixiy sulolalar davrida bitilgan muqaddas kitob nusxalari va ularning eski o'zbek yozuvdagi ma'nolar tarjimai qo'yilgan. Necha asrlar oldin ko'chirilgan ushbu kitoblarning har biri qog'oz, bo'yog'i, muqovasi bilan ajralib turadi. Diyorimizda kitob san'ati qanchalik yuksalganidan dalolat beradi. Masalan, ular orasida oltin suvi yuritilgan kitob ham bor. Bu yerda gap oltinning qiymatida emas! Balki o'sha paytda aniq fanlar, xususan, kimyoning qanchalik rivoj topgani haqida!

Uni tayyorlash, zarhal bitkini yaratish yuksak bilim, sabr va bardosh talab etadi. Uning asrlar davomida asiyatini yo'qotmasligi

esa ajdodlarimiz o'z ishini qanchalik puxta bilganidan dalolat. Shu murakkab jarayonni jamiyat hayotiga ham o'xshatish mumkin. Qog'oz va oltinni bir-biriga jipslashtirish san'atini mamlakatimiz yetakchisining iqtisodiy taraqqiyot bilan birga ma'rifiy yuksalishini ham barobar olib borishiga o'xshatish mumkin.

Shu ma'noda, markazga kirganimizda uning ma'rifatidan bahra olishimiz tabiiy va zarur. Bu inson qalb ko'zi ochiqdigan dalolat. Ayni paytda bu ma'rifat qayerdan, qanday quvvat olgani haqida ham fikr yuritishimiz lozim. Albatta, uning zamirida ajdodlarimiz zakosi mujassam. Shu bilan birga, aniq va ijtimoiy fanlarni o'zida jamlagan yuksak intellektidan kuch olgan. Buni diyorimizda rivoj topgan kitob san'ati misolida ham ko'rish mumkin.

Markazning ochilishida Prezidentimiz mamlakat ziyolilari oldiga yana bir muhim vazifa, ya'ni mazkur markazni xalqimizga, butun dunyoga tanitish, uning mazmun-mohiyatini ochib berish masalasini qo'ydi. Bu topshiriqni hozirgi kunimiz uchun eng muhim vazifa deb bilaman. Masalan, kasbimiz taqozosi tufayli malaka oshirishga kelgan imom-xatiblar bilan bir necha bor markazga bordik. Ular markazdan juda katta taassurot olib chiqdi. Dinimiz, tariximiz ko'rsatilgan ehtiromdan qalblar ravshan tortdi. Davlatimiz rahbarining targ'ibot masalasidagi chaqirig'idan so'ng o'ylay boshladim: biz ularga Islom sivilizatsiyasi markazi mohiyatini to'liq tushuntirishimiz? Boy tariximizga oid ekspozitsiyalar qadri, zarhal sahifa yaratishdagi



Husniddin AHMEDOV,
Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Diniy-ma'rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti direktori, siyosiy fanlar doktori, professor

mashaqqatli mehnat ortidagi ilm va hunarni anglab, teran his etishiga oz bo'lsa ham zamin yaratadi oldikmi? Nazarimda markazga mana shunday savollar bilan qayta-qayta kelish, uni bor bo'y-basti bilan yana ko'p marta o'rganish zarur deb hisoblayman. Ana shu sababdan ham institutimizning Islom sivilizatsiyasi markazi bilan hamkorlik dasturi ishlab chiqildi va unda bu boradagi barcha zarur chora-tadbirlar belgilandi. Diniy-ma'rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha institutimizdagi o'quvchilarga jalb qilinadigan tinglovchilar uchun ba'zi dars mashg'ulotlarini bevosita Islom sivilizatsiyasi markazida tashkil qilish ham ana shu sohadagi intilishlarimizga yordam berishi shubhasiz.

Bugun yoshlarimiz orasida o'qib-o'rganishga ishtiyoq nihoyatda kuchli. Uni xalqaro darajadagi yutuqlar misolida ham ko'rib turibmiz. Ana shu rag'batni yanada jonlantirish, uni ma'rifat, vatanparvarlik ruhi bilan kuchaytirishda markazning o'rni va

ahamiyati katta. Sodda qilib aytganda, markaz Uchinchi Uyg'onish davrinin poydevoridir. Ha, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faqat xalqimiz buyukligining timsoligina emas, balki u dunyo ilm-ma'rifati yadrosidir.

Gap bilim olish haqida ketar ekan, markazning kutubxonasi haqida ham alohida to'xtalish zarur. Markaziy Osiyoda o'xshashi yo'q ushbu kutubxona eng zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan. Hozir uning fondida 45 ming 150 tadan ziyod adabiyot bor. Bu juda katta ilmiy xazira degani. Ayniqsa, kitoblarning 2609 tasi nodir manbalardan iborat ekani ziyo maskanining ilmiy qiymatini yanada oshiradi. Bundan tashqari, kutubxonada 350 mingta elektron adabiyot ham bor. Ulardan foydalanish uchun esa nihoyatda zamonaviy va qulay mahit yaratilgan. Buni kutubxonaning bir vaqtning o'zida 310 foydalanuvchiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega ekani ham tasdiqlaydi. Umuman, markaz kutubxonasi ilm kishilari uchun barcha zarur sharoit bor. Masalan, olimlar va professorlar uchun alohida 4 ta xona tashkil qilingan. Ularda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun barcha zamonaviy texnika va qulayliklar mavjud.

Kutubxonadan Yevropa nodir nashrlari ham o'rin olgan. Ularda ham tariximiz aks etgan. Xususan, turkiy xalqlar tarixi, Sharq xalqlariga oid ensiklopediyalar, Xuroson va Movarounnahrha bag'ishlangan sayohatnomalarning XX asrgacha bo'lgan davrda chop etilgan nusxalari bor. Shuningdek, Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasul anbiyo" asari, Alisher Navoiyning XIX asr boshlarida Toshkentda ko'chirilgan devonlari, Mavlono Jaloliddin Rumiy asarlarining turkiy tildagi tarjimalari kabi nodir nashrlar ham bor. Ahamiyatli, ushbu qo'lyozmalar shaxsiy kolleksiyalardan xarid qilingan.

Shaxsiy kolleksiyadagi nodir asarlarni xarid qilish aytishgagina oson. Buning nechog'liq mashaqqatli mehnat va izlanish, mehr va e'tibor talab etishini shu sohaga o'ziga bo'lsa ham qiziqqanlar yaxshi anglaydi. Shu o'rinda yana bir jihatga e'tibor qaratish zarur. Mamlakatimizda ilm-ma'rifatga e'tibor tufayli markaz noyob manbalar bilan boyib bormoqda. Bundan faxrlanish, quvonish va uning ahamiyatini barchaga yetkazish — birlamchi vazifamiz. Ammo ushbu imkoniyatlardan keng foydalanish yana bir muhim missiyamiz. Bu manbalarni o'qib-o'rganish, tadqiq etishda imkoniyatlarga munosib harakat qilishimiz zarur.

Aytilganidek, ushbu megaloyiha uzoqni ko'zlab, aniq reja asosida bunyod etildi. Tarhini chizishdan tortib, har bir ekspozitsiya, bezagigacha bo'lgan barcha jarayonda milliy o'zligimiz asosida zamonaviy va betakror arxitektura e'tibor berilgan. Markaz atrofida ham chinakam milliy ruh va milliy qiyofadagi sharqona shaharcha barpo etildi.

Majmuada yurtimizning uch ming yillik tarixidan so'zlaydigan sivilizatsiya durdonalarini va yangi O'zbekistonning so'nmas qadratga aylanib borayotgan buguni va ertasini ko'rish, his qilish mumkin. Bu xalqimizning intellektual va madaniy salohiyatini yaqqol anglash imkoniyati demak. Mamlakatimiz yetakchisi ana shunday keng ko'lamdagi ahamiyatga ega megaloyihaga asos soldi. Bizning galdagi vazifamiz esa shunga munosib bo'lish, yoshlarga ushbu markaz timsolida zamonaviy ilm-fan asosidagi ma'rifatni yetkazib berishdir.



Mita TANJUNG,
Indoneziya musulmon haj tashkilotchilari assotsiatsiyasi raisi

O'zbekiston sivilizatsiyasi, tarixi, mahalliy donishmandlik va ma'naviyatning butun jozibasini o'zida jamlagan maskan. Har bir bo'limga ekspozitsiyalar juda qimmatli.

Markazdagi barcha go'zallik, ajoyib ma'lumotlar, tarixiy boyliklarni ko'rish men uchun katta baxt. O'zbekistonda qadimdan to hozirgacha bo'lgan butun sivilizatsiya mujassam ekan.

Vizual zal va ayniqsa, Ka'ba kisvasi namoyish etilgan bo'lim menda juda katta taassurot qoldirdi. Bu joy Indoneziya musulmon sayyohlari uchun ham juda muhim. Kelgusida biz O'zbekistonning buyuk sivilizatsiyasi, tarixi va madaniyatini yanada ko'p odamlar kelib ko'rishiga hissa qo'shamiz.



Muhammad GAZALI,
Indoneziya umra va haj sayyohlik agentliklari assotsiatsiyasining mintaqalar raisi

Bu markaz nihoyatda chiroyli, qadimgi sivilizatsiya merosi zamonaviy va ilg'or texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan juda hayratlanarli. Bu yerga kirganningda go'yo o'sha davrning o'zida yurgandek, tarix sahifalari orasida sayr qilayotgandek bo'lasiz.

Markaz muzeyida Birinchi va Ikkinchi Renessans hamda yangi O'zbekiston davri ruhiyatini jonlangan. Menimcha, bu juda qiziqarli va o'ziga xos tajriba. Shu sababli Indoneziyadagi birodarlarimni ham bu

maskanga kelib, tosh davridan tortib, islom dinining kirib kelishiga bo'lgan sivilizatsiya taraqqiyotini o'z ko'zi bilan ko'rishga chorlayman.



Tahir FAROOQ,
"Daily Ittehad" media guruhi bosh muharriri

O'zbekiston o'z tarixini nafaqat saqlab qolgan, balki uni yangi avlod uchun eng zamonaviy uslubda jonlantirib bera olyapti.

Har bir zalda ilm bor, har bir ekspozitsiya o'tmishning yangi sahifasini ochadi. Sun'iy intellekt va multimediya texnologiyalarining bunday uyg'unligi tarixni yanada chuqur anglashga yordam beradi.

konsepsiyasining ichkil ilmiy asoslangani va ma'rifiy ruhini alohida e'tirof etish lozim. Islom sivilizatsiyasi markazi "tarixni jonlantirgan, ilm va texnologiyani uyg'unlashtirgan noyob xazina" bo'lib, uni dunyo miqyosida keng targ'ib qilish zarur.

Qur'on zalidagi noyob qo'lyozmalar, buyuk allomalar merosi, markaz



Gulnara JAMANKULOVA,
Qirg'iz-slyan rus universiteti professori

Islom sivilizatsiyasi markazi o'zining ulug'vorligi, me'moriy ko'lami bilan nihoyatda katta hayrat uyg'otadi. Bu — betakror me'moriy yodgorlik. Juda go'zal bu markazni barpo etishda o'z hissasini qo'shgan minglab insonlarning mehnati yaqqol sezilib turadi.

Markaz haqiqatan ham hayratlanarli darajada bunyod etilgan. Albatta, markazning eng asosiy durdonasi bu — noyob Qur'on qo'lyozmasi bo'lib, juda ulug'vor, nihoyatda qimmatbaho manba. Islom g'oyasining targ'ib qilinishiga qo'lyozma o'zida quvonarli. Chunki u bag'rikeng, tinchlikparvar din bo'lib, barcha xalqlar o'rtasida tinchlik va o'zaro hamkorlikka da'vat etadi. Ayniqsa,

avvalo, islom millatlari o'rtasidagi birlikni mustahkamlaydi.

O'zbekiston juda ulkan ishini uddaladi. O'zbekiston Prezidentining bunday markaz barpo etish tashabbusi — benazir va ulug' bir g'oya. Ushbu markaz islom yetakchilari, islomga e'tiqod qiluvchi va hatto islomga e'tiqod qilmaydigan, ammo unga qiziqadigan insonlar uchrasadigan maskanga aylana deb o'ylayman.



Muhammad bin SULAYM,
Xalqaro avtomobil federatsiyasi (FIA) prezidenti

O'zbekiston hukumati va shaxsan Prezidentiga bu markazni o'z ko'zimiz bilan ko'rish imkonini bergani uchun chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Bu yerda ilgari bilmagan ko'plab ma'lumotlarni ko'rdim. Menimcha, markaz O'zbekistonning bebaho xazinasidir. Bu yurt dunyoga yoygan ilmiy meros haqida ko'pchilik hali ham yetarlicha xabardor emas. Qur'onga

bag'ishlangan zalda asl qo'lyozmalarni ko'rganim, yo'qolgan yoki turli yo'llar bilan boshqa mamlakatlarga o'tib ketgan nodir manbalarni qayta jamlash bo'yicha Prezidentning shaxsiy tashabbusi haqida eshitganim meni chuqur hayajonga soldi.



Biljana MILOSEVICH,
Xalqaro Qizil Yarim oy jamiyatining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy delegatsiyasi rahbari

Chin dildan aytishim kerak — men bu yerda ko'rganlarimdan hayratdaman.

Ekspozitsiyalar nafaqat ilmiy asoslangan, balki juda zamonaviy va ta'sirli tarzda yasalgan. Interaktiv bo'limlar orqali tarixning ichiga kirgandek bo'lasiz.

Eng muhim, bu maskan insoniyat merosining qadriini yuksaltiruvchi, tinchlik va o'zaro hurmat g'oyalarni tarannum etuvchi

MARKAZ KUTUBXONASIDAN KITOBLARIMIZ O'RIN OLDI

Faxr

Kuni kecha "Eski shaharda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilarkan", deb eshitgandek edik. O'shanga ham 8 yil bo'libdi. Bu yillar davomida har jihatdan ulkan loyihani amalga oshirish, albatta, oson kechmagani aniq. O'tgan vaqt davomida Prezidentimiz o'n bir marotaba, o'tgan yilning o'zida besh marotaba markazda bo'lib, tavsiya va maslahatlarini bergani ham fikrimiz isbotidir.



kishiga xizmat ko'rsatadi. Kutubxonaning kitob fondidan 100 ming qo'lyozma va toshbosma, 350 ming zamonaviy nashr joy oladi. Kutubxonaning elektron fondi 5 million resursga mo'ljallangan.

Kishini mamnun etadigan yana bir muhim jihat shuki, yosh farzandli tadqiqotchilar uchun alohida bolalar xonasi, imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus sharoit yaratilgan. Bolalar xonasidagi jihozlar, maxsus adabiyotlar, turli o'yinlar jangi o'g'il-qizlarimizni harakatlanish, fikr yuritishga undaydi.

Islom sivilizatsiyasi markazi bilan tanishish asosida xohlovchilar kutubxonaga kitob taqdim etishi mumkin yoki mumkin emasligi haqida ham so'radik. Ijobiy javobdan ruhlanib, "Tong yulduzi" kutubxonasi" turkumida chop etilgan

betakror arxitektura, chinakam milliy ruh va milliy qiyofaga ega bo'lgan sharqona shaharcha barpo etildi".

Bunday markazning barpo etilishidan asosiy maqsad xalqimizning uch ming yillik tarixi, bunyodkorlik salohiyati, jahon tamadduniga qo'shgan hissasi, buyuk ajdodlarimizning madaniy-ma'rifiy merosini o'rganish va ommalashtirishdan iborat.

O'zim ikki marotaba ushbu muhtasham maskanda bo'ldim. Ikki safar ham qalbm g'urur va iftixorga to'ldi. Chindan ham muqaddas dinimiz ezigulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etishini yurak-yurakdan his qildim. Shu tabarruk yurt farzandi ekanimdan yana bir bor faxr tuymdim.

Markazning asosiy qismida Qur'oni karim zali joylashgan. Bu yerda musulmon dunyosining ma'naviy durdonasi bo'lmish, VII asrda qo'lda ko'chirilgan Usmon mus'hafi joylashtirilgan. Yoki uch ming yillik tarixga ega bug' u haykalchasini olaylik. Bug' u turkiy xalqlar uchun azaldan avlodlar davomiyligi ramzi bo'lgan. Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asarida ham Ona bug' u obraziga alohida e'tibor qaratilgan.

Markazdagi muhtasham kutubxona kishini to'liqlantirishi shubhasiz. Ma'lumotlarga ko'ra, innovatsion kutubxona bir vaqtning o'zida 310



Feruza ODILOVA,
"Tong yulduzi" gazetasi bosh muharriri, II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni sohibi

Davlatimiz rahbari aytganidek, "Yetti emas, yetmish marta o'ylab, uzoqni ko'zlab, tinimsiz izlandik. Nihoyat qadimdan Toshkentni azimning ma'naviy markazi bo'lib kelgan Hazrati Imom majmuasi yonida, ko'rib turganingizdek,

Ismondan oldingi davr "Vaqt devori" da qadimgi madaniyat ildizlari, Baqtriya, Xorazm, Sug'd, Choch va Farg'ona, qadimgi savdo yo'llari aks etgan barelyef suratlarini ko'rishimiz mumkin.

Mana bu vitrina ostida 80 ming yillik tarixga ega eng qadimgi o'q uchlari kolleksiyasi joylashgan. Bu o'qlar Toshkent yaqinidagi Obirahmat g'oridan o'tgan yili topilgan.

Mazkur otga qo'shilgan arava ekspozitiya zaminimiz azaldan turli ixtirolar va kashfiyotlar vatani bo'lgani, ajdodlarimiz insoniyatning ilk buyuk ixtirolaridan bo'lgan g'ildirak xizmatidan bir necha ming yillar burun foydalanganini ko'rsatadi.


Bug'u haykalchasi 3 ming yillik tarixga ega. Jahon olimlari bronzadan ishlangan bu haykalcha chindan ham O'zbekistonda yasalganini aniqlagan. Xuddi shunday bug'u suratlarini biz Sarmishoy qoyalarida ham uchratamiz. Bu haqiqiy san'at asari. Uch ming yillar avval yurtimiz hududida bronza, kumush, temir singari metallar qotishmasidan mana shunday bejirim go'zal asarlar yaratilgan. Bug'u turkiy ajdodlarimiz uchun azaldan avlodlar davomiyligi ramzi sanalgan.



Fotosayohat

"VAQT DEVORI"

U inson sivilizatsiyasi taraqqiyotini yangicha ko'z bilan anglatishga qaratilgan innovatsion madaniy-ma'rifiy tashabbus hisoblanadi. "Vaqt devori" da islomdan avvalgi davr, Birinchi va Ikkinchi Renessans bosqichlarini qamrab olgan holda ko'plab multimediyaviy videokontent, animatsiya, o'yin texnologiyalari va sun'iy intellekt asosidagi ekspozitlar ishlab chiqilgan.



Ismondan avvalgi davr ekspozitsiyasidagi "Vaqt devori" da ajdodlarimizning hayot tarzi, kundalik mashg'ulotlari maxsus videolavhalar yordamida ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, ilk diniy e'tiqodlar, xalqimizning ozodlik uchun kurashlari ham shu devorda aks ettirilgan.

"Birinchi Renessans" ekspozitsiyasidagi "Vaqt devori" da islom dinining tarqalishi, "Bayt ul-hikma" akademiyasida faoliyat ko'rsatgan allomalimiz, Ma'mun akademiyasi tasvirlangan mahobatli rangtasvir asarlari o'rin olgan. Shuningdek, ushbu devor bo'ylab turli davrlarga oid ekspozitlar, numizmatika namunalari, xaritalar, videoroliklar, interaktiv o'yinlar joylashtirilgan.

"Ikkinchi Renessans" ekspozitsiyasidagi "Vaqt devori" da Amir Temur va temuriylar davrida yaratilgan qo'lyozmalardan olingan miniatyuralar, ularda aks etgan tarixiy shaxslar siymosini ko'rish mumkin.

Amir Temur tadqiqotlarda, asosan, sarkarda o'laroq e'tirof etilgan. Lekin "Ikkinchi Renessans" ekspozitsiyasidagi "Vaqt devori" da Sohibqiron yangicha obrazda, ya'ni buyuk davlat arbobi, bunyodkor, ilm-ma'rifat homiysi sifatidagi siymosi ko'rsatilgan.

Jahon matbuotida

ILMIY MULOQOT VA HAMKORLIK UCHUN ZAMONAVIY MAYDON

Boshlanishi 3-betda

"Forbes" nashrida qayd etilishicha, "Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakat barqaror rivojlanish va iqtisodiy ochiqlik strategiyasini amalga oshirmoqda". Shu bilan birga, geosiyosiy ziddiyatlar va

madaniy identifikatsiya atrofidagi bahslar kuchayib borayotgan sharoitda Islom sivilizatsiyasi markazi "sivilizatsiyaviy merosni zamonaviy "yumshoq kuch" vositasiga aylantirmoqda".

Forbes



"The Wall Street Journal" markazning "boy tarixiy merosni birlashtirish" vazifasini bajarayotganiga u'g' beradi. "China Daily" esa markazni "O'zbekistonning muhim madaniy-ilmii loyihalaridan biri", deb ta'riflab, uning O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi madaniy-

gumanitar hamkorlikni mustahkamlashdagi o'rni e'tibor qaratgan. "The Korea Times" majmua "islom sivilizatsiyasining insonparvar va ma'rifiy mohiyatini aks ettirishi" hamda "madaniy muloqot va ilmiy hamkorlik uchun zamonaviy maydon" ekanini qayd etgan.

"Euronews" markazni ilmiy tadqiqotlar, ta'lim va zamonaviy ko'rgazma amaliyotlarini birlashtirgan "yangi meros va tadqiqotlar xabi" sifatida ta'riflaydi. Ispaniyaning "ABC" nashri

esa "O'zbekiston Buyuk ipak yo'li merosini qayta tiklamoqda", deya loyihaning ahamiyatini mintaqaning tarixiy sivilizatsiyaviy almashinuv markazi sifatidagi o'rni bilan bog'laydi.



Vengriyaning "Hello Magyar" nashrida ta'kidlanishicha, "majmua arxitekturasi nafaqat ulkanligi, balki zamonaviy shaharsozlik va ekologik barqarorlik standartlariga to'liq mosligi bilan ham kishini hayratlantiradi". Turkiyaning

"Yeni Konya" nashri markazni "so'nggi asrdagi eng muhim tarixiy, madaniy va badiiy yutuqlardan biri sifatida baholash mumkin bo'lgan ulkan va salobatli majmua", deb atagan.

Ozərbayjonning "Caliber.az" nashrida qayd etilishicha, "Ginnesning rekordlar kitobi"ga nomzod" sifatida qayd etilgan Islom sivilizatsiyasi markazining ko'lami va noyobligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Islom sivilizatsiyasi markazi shunchaki yangi muzey emas, balki kengroq ma'noda — mamlakatlar o'z merosini qayta kashf etayotgan va uni dunyoga tushunarli qilib taqdim qilayotgan tarixning bir qismiga aylanmoqda. Bugun markaz keluvchilar uchun ochiq. Ekspertlar uning madaniy turizmni rivojlantirishdagi ulkan salohiyatini ham ta'kidlamoqda. Yangi majmua O'zbekistonda noyob tarixiy va intellektual merosga ega manzil sifatida yanada jozibador qiladi. Biroq jahon OAV e'tiboridan kelib chiqib aytish mumkinki, uning ahamiyati turizm doirasidan ancha keng va ko'lamlidir.



MAJMUA ZIYORATINING TARTIB-QOIDALARI



Bilib qo'ygan yaxshi

Markaz keng jamoatchilik uchun ochildi va doimiy ravishda tashrif buyurish mumkin. Ish vaqti tashrif buyuruvchilarga qulay qilib belgilangan: soat 09:00 dan 22:00 gacha, dam olish kunlarisiz. Bu esa, ayniqsa, oila bilan ishdan keyin tashrif buyurish uchun yaxshi imkoniyat. Bunday amaliyot O'zbekiston muzeylari uchun ilk bor joriy etilmoqda.

QONUNCHILIKKA MUVOFIQ MAJMUA GA KIRISHDA QUYIDAGI TOIFALAR UCHUN IMTIYOZLAR MAVJUD:

- I va II guruh nogironlari;
- nogiron bolalar va ularning hamrohlar;
- Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari;
- Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari.
- Ekskursiyalar o'zbek, rus va ingliz tillarida o'tkaziladi.
- Markazda robot-gidlar, ko'p tilli audiogidlar va virtual sayohat formatlari kabi qo'shimcha xizmatlar ham joriy etilmoqda.

SHUNINGDEK, IJTIMOYIY DASTURLAR ISHLAB CHIQLILMOQDA:

- maktab o'quvchilari va talabalar uchun imtiyozli tashriflar;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun tekin dasturlar.

QOIDALAR

- Tashrifchilar:
 - jamoat tartibiga rioya qilishi;
 - ekspozitlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi;
 - diniy hududlarda kiyinish qoidalariga amal qilishi shart.

TAQIQLANADI:

- ekspozitlarga ruxsatsiz tegish;
- flesh bilan suratga olish;
- ruxsatsiz ekskursiya o'tkazish;
- ruxsatsiz tijorat faoliyati.

QOIDALAR BILAN QAYERDA TANISHISH MUMKIN?

- Markazning rasmiy saytida;
- onlayn platformalarda;
- kassalar va kirish joyida.

O'zbekiston Konstitutsiyasida: "Har kim bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart", deb belgilab qo'yilgan.

TIZIMLI TAHLIL, SAMARALI YECHIM

MUROJAATLAR BILAN ISHLASH TAKOMILLASHMOQDA



Abdumannob RAHIMOV,
Konstitutsiyaviy sud sudyasi,
yuridik fanlar doktori

Demak, murojaatlar fuqarolarning shunchaki siyosiy huquqi emas. Har bir murojaat orida inson taqdiri turibdi.

Ko'pchiligimizning ushbu konstitutsiyaviy normadan xabarimiz bor. Lekin Prezidentimiz yaqinda bo'lib o'tgan yig'ilishda ta'kidlaganidek, biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutilib qo'ydik. Ularning ichiga kirib, ochiq va samimiy gaplashish, dardini eshitish faoliyatimizda, afsuski, oxiriga o'rininga tushib qoldi.

So'nggi yillarda, aniqrog'i, yangi O'zbekistonda barpo etish siyosati ilgari surilgan ilk davrda xalq bilan muloqot inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlashning bosh mezonini etib belgilangan edi.

Mamlakatimiz yetakchisining xalq bilan muloqot siyosatini davlat darajasiga olib chiqishi shunchaki mavsumiy tadbir emas, buning muhim ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sababi bor edi. Esingizda bo'lsa, bundan 10 yil muqaddam, 2016-yil sentabrda internet tarmog'ida Bosh vazirning elektron qabulxonasi tashkil etilgandi. Ushbu

qabulxonaga qisqa davrda aholidan 218 mingdan ortiq murojaat kelib tushgani va ulardan 59 foiziga ijobiy yechim topilib, yana 41 foizi o'rganilishi, o'sha vaqtlardagi islohotlarga qaramay, bir qancha jiddiy muammolar borligidan dalolat edi. Prezidentimiz O'zbekiston Konstitutsiyasining 24 yilligi munosabati bilan so'zlagan ma'ruzasida ta'kidlaganidek, bu murojaatlar tahlilidan ko'p narsa ayon bo'ldi. Ta'bir joiz bo'lsa, ular hayotimizdagi mavjud o'tkir muammolarni ochib berdi.

Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak degan mashhur ibora aynan o'sha vaqtda ilgari surilgan ham bejiz emas. Yillar davomida to'planib qolgan va yechimini kutayotgan masalalarga jiddiy e'tibor qaratish uchun 2017-yil yurimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini" deb e'lon qilindi. Bundan maqsad davlat idoralarning fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarida yondashuvni tubdan qayta qurish, aholi bilan doimiy muloqotda bo'lish, ularni qiynayotgan muammolarni hal qilishning yangi mexanizmi va samarali usullarini joriy etish edi.

2017-yildan buyon barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimi joriy etilgan davlat hokimiyatining biridan-bir manbai xalq degan konstitutsiyaviy normani amaliyotga joriy qilish yo'lidagi ulkan qadam bo'ldi. Albatta, bunda mamlakatimiz yetakchisining qat'iy siyosati va xalqni rozi qilish yo'lidagi shaxsiy tashabbusi muhim ahamiyat kasb etdi.

O'tgan yillarda xalq bilan muloqot tizimi muntazam takomillashib bordi. Uning yurimiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida tutgan o'rni alohida e'tibor berildi. Prezidentning Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonasi muammolarni bevosita hal etishda aholiga samarali xizmat ko'rsatdi. Aynan ushbu tizim orqali joylarda sayyor uchrashuv va qabullar tashkil etilib, uzoq joylarda ham odamlarni bevosita mutasaddi rahbarlar tomonidan qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda Prezident Virtual qabulxonasiga 1 million 216 ming murojaat kelib tushgan va ularning 579 mingtasi ijobiy hal qilingan. Bu joylarda muammolar o'z yechimini kutib turganidan dalolat, albatta. Aynan shuning uchun joriy yil 13-mart kuni davlatimiz rahbari raisligida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yangi darajaga ko'tarish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda o'tgan yillarda xalq bilan samarali muloqot tizimi yaratilgani va kelgusida davlat hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida kechayotgan keng ko'lami yangilanishlar jarayonida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari xalq bilan muloqot madaniyatini izchil yuksaltirish, fuqarolarni eshitish, fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda qaror qabul qilish davlat idoralari faoliyatida bosh mezon bo'lishi shartligini qayd etdi. Shuningdek, aholidan kelib tushayotgan murojaatlarga nafaqat tezkor javob berish, balki ularni tizimli tahlil qilib, ijtimoiy tadqiqot natijalari bilan solishtirish orqali tegishli yechimlarni taklif qilish zarurligini bildirdi.

Yuqoridagilardan chiqadigan xulosa shuki, "Har bir inson va xonadon muammosini bilib, vaqtda ko'mak berishim kerak" degan shior har bir tuman, shahar, viloyat hokimi, vazir, uning hududiy tashkilot rahbarlarining bosh qoidasi bo'lishi zarur. Bundan 10 yil muqaddam boshlangan xalq bilan muloqot shunchaki mavsumiy tadbir emas, balki xalqni rozi qilish yo'lidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.

Xalq bilan muloqotning yangi tartibiga ko'ra, endi Xalq qabulxonalari faqat arizalarni qabul qilish va ularni tegishli tartibda mas'ullarga yuborish bilan cheklanmaydi. Mavjud muammolarni tahlil etib, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlaydi va tegishli idoralari bilan birgalikda huquqiy yechimini topishga oid amaliy takliflarni beradi. Eng muhimi, murojaatlar bilan ishlashda mahalla tizimining mas'uliyati yanada oshirildi.

Har bir murojaat ortida inson taqdiri turgan ekan, demak, murojaatga munosabat inson taqdiriga munosabatdir. Murojaatlarga befarqlik esa siyosatimizga xiyonat deb qabul qilinmog'i kerak!

YUKSAK BASHARIY G'OYA YO'LIDAGI YANA BIR MUHIM QADAM



Keyingi yillarda yurimizda ayollar va bolalarni himoya qilish tizimi sezilarli darajada rivojlandi. Bu jarayonning asosiy maqsadi oilaviy zo'ravonlik, kamsitish, mehnat va ijtimoiy huquqlar buzilishining oldini olish, shuningdek, ayollar va bolalarning huquqiy, ijtimoiy himoyasini mustahkamlashdan iborat. Yangi bosqichda tizim samaradorligini oshirish uchun qonunchilik, ijtimoiy dasturlar va profilaktika mexanizmlari integratsiya qilinmoqda.



Dilfuza ABDULLAYEVA,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Xususan, joriy yil 3-mart kuni davlatimiz rahbarining "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan ta'ziy va zo'ravonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonning asosiy maqsadi ayollar va bolalarga nisbatan sodir etiladigan ta'ziy va zo'ravonlik holatlarini kamaytirish, ularning huquqiy himoyasini kuchaytirish hamda ijtimoiy-tarbiyaviy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirishdir. Ushbu hujjat inson huquqlari va gender tenglik sohasida milliy qonunchilikni rivojlantirish hamda profilaktika tizimini kuchaytirishni nazarda tutadi. Shuningdek, xalqaro standartlarga, jumladan, BMning ayollar va bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyalari bilan uyg'unlashtirilgan.

Bundan tashqari, huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish orqali ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik uchun jazo choralari kuchaytirish va ularni samarali qo'llash, mahalliy hokimiyat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralari faoliyatida aniq standartlarni joriy qilish chora-tadbirlari belgilandi. Jinoyat

va huquqbuzarliklar holatlarini tizimli tahlil qilish va monitoring tizimini yaratish ko'zda tutilmoqda. Tashkiliy hamda profilaktik choralar orqali profilaktika inspektorlari va ijtimoiy xizmatlar faoliyatini kengaytirish, mahallalarda, ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish hamda zo'ravonlik qurbonlariga psixologik, huquqiy va

ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish shular jumlasidan.

Shu bilan birga, mahallalar, jamoatchilikni jalb qilgan holda har bir mahalla va maktabda jamoatchilik kuzatuv guruhlarini shakllantirish, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari orqali ma'rifiy-hushyorlik kampaniyalari o'tkazish hamda volontyor va NNtlar ishtirokida jamiyatda zo'ravonlikka qarshi madaniyatni rivojlantirish masalasi kun tartibidan o'rin olgan.

Endilikda ayollar va bolalarga nisbatan ta'ziy va zo'ravonlik holatlariga qarshi kurashning aniq mexanizmlari, amaliy choralari belgilandi. Jumladan, 2026-yil 1-apreldan boshlab himoya orderi berilgan jabrlanuvchi xotin-qizlarning aloqa vositalariga, ya'ni telefon, planshet va boshqa qurilmalariga ijtimoiy himoya milliy agentligining ta'ziy va zo'ravonlik holatlarini to'g'risida zudlik bilan xabar berish imkonini beruvchi ("SOS" chaqiruv) "my.ihma.uz" mobil ilovasi ularning roziligi bilan o'rnatiladi.

Farmonning ijtimoiy ahamiyatli jihatlardan biri homilador talaba-qizlar va yosh onalar uchun ta'limni davom ettirish imkoniyatlarini kengaytirilishidir. Endi kursdan qolgan talabalarga o'qishni tiklash imkonini beriladi, masofaviy ta'lim shakli kengaytiriladi hamda akademik ta'lim davrida ham o'qishni onlayn davom ettirishga sharoit yaratiladi. Bu esa ayol-qizlarimizning ta'lim olish va kasb egallash huquqi ustuvor ekanini anglatadi.

Yangi bosqichda ayollar va bolalarni himoya qilish tizimi nafaqat qonunchilikni mustahkamlashga, balki ijtimoiy, psixologik va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada takomillashtirishga qaratilgan. Bu, o'z navbatida, jamiyatda gender tenglikni ta'minlash, oilaviy zo'ravonlik va kamsitish holatlarini kamaytirishga xizmat qilishi shubhasiz. Shuningdek, ushbu yangi tizim profilaktik yondashuv, zamonaviy monitoring va samarali yordam mexanizmlari orqali xalqaro standartlarga moslashish, shuning vositasida "inson qadri uchun" degan yuksak bashariy g'oya yo'lidagi yana bir muhim qadam bo'ldi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar uchun keng sharoitlar yaratish, ularning bilim va salohiyatini ro'yogga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ta'lim olish, kasb egallash va o'z g'oyalarni amalga oshirish uchun yaratilgan imkoniyatlar inson qadri ni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Bunday yondashuv jamiyatning ichki resurslarini safarbar etib, innovation fikr va tashabbuslarni rag'batlantirishga, iqtisodiy faollikni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shu maqsadda yoshlar bilan tizimli ishlash va ularni tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha amaliy mexanizmlar izchil kengaytirilmoqda. Moliyaviy ko'mak, tajriba almashish va startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlari orqali yoshlar mustaqil iqtisodiy subyektlar sifatida shakllanmoqda.

O'tgan yili ham yoshlar bandligini ta'minlash va tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish bo'yicha muhim ishlar qilindi. Jumladan, banklar va Yoshlar ishlari agentligi orqali 400 million AQSH dollaridan ortiq mablag' yo'naltirildi. "Yoshlar biznesi" va "Kelajakka qadam" dasturlari doirasidagi chora-tadbirlar ham samarasini ko'rsatdi. Bu dasturlar hisobiga 15 ming yosh tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi, shu orqali 50 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. Bu ko'rsatkich yoshlar bandligini ta'minlash, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Joriy yil fevral oyida davlatimiz rahbarining yoshlar bilan muloqotida ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha imkoniyatlar haqida ham so'z bordi. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun qo'shimcha 200 million dollar ajratilishi

Kamolot pillapoyasi

YOSHLAR SALOHIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH – DOLZARB MASALA

"KAMIDA 5 NAFAR BITIRUVCHINI ISH BILAN TA'MINLAGAN TADBIRKORLARGA YANADA KATTAROQ QO'LLAB-QUVVATLASH CHORALARI KO'ZDA TUTILGAN BO'LIB, ULARGA 10 MILLIARD SO'MGACHA KREDIT AJRATILISHI BELGILANGAN. BU YOSHLARNI IQTISODIY FAOLLIKKA JALB ETISHDA MUHIM AHAMIYAT KASB ETADI.



belgilandi. Shu asosda moliyalashtirish hajmi oshirilib, o'zini o'zi band qilgan fuqarolar uchun kredit miqdori 100 million so'mdan 300 million so'mgacha yetkazildi.

Shuningdek, innovatsion startap loyihalarga 100 ming dollargacha investitsiya kiritishga ruxsat berildi. Bu yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va raqobatbardosh biznes muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Servis va umumiy ovqatlanish sohasida katta tajribaga ega, mingdan ortiq ish o'rni yaratgan mahalliy brendlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Endi franchiza asosida o'z biznesini yo'lga qo'yishni istagan yoshlar uchun maxsus, qiyay va manfaatli moliyalashtirish paketlari joriy etildi. Bu yoshlarga tayyor biznes modellar asosida faoliyat yuritish, boshqaruv va marketing ko'nikmalarini

amalda o'zlashtirish imkonini beradi. Joriy yildan boshlab "Kelajak tadbirkori" dasturi doirasida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etilmoqda. Mazkur dastur orqali yoshlarning biznes tashabbuslarini rag'batlantirish, ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda yangi ish o'rinlari yaratishga alohida e'tibor qaratilgan.

Dasturga muvofiq, yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatgacha bo'lgan davr uchun yillik 15 foiz stavkada imtiyozli kreditlar ajratish yo'lga qo'yildi. Bu yoshlarning o'z biznes g'oyalarni amalga oshirishida muhim moliyaviy tayanch bo'ladi.

Xususan, o'zini o'zi band qilgan yoshlar uchun garov talab etilmasdan 20 million so'mgacha mablag' ajratish nazarda tutilgan. Tadbirkorlik ko'nikmalariga ega bo'lib, yangi biznes boshlayotgan yoshlar esa 300 million so'mgacha imtiyozli kreditlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, faoliyatini kengaytirishni rejalashtirayotgan tadbirkorlarga 2 milliard so'mgacha moliyaviy resurslar ajratiladi.

Bundan tashqari, kamida 5 nafar bitiruvchini ish bilan ta'minlagan tadbirkorlarga yanada kattaroq qo'llab-quvvatlash choralari ko'zda tutilgan bo'lib, ularga 10 milliard so'mgacha kredit ajratilishi belgilangan. Bu yoshlarni iqtisodiy faollikka jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank tizimi ham ushbu jarayonda faol ishtirok etmoqda. Xususan, "O'zsanooatqurilishbank" tomonidan "Yoshlar biznesida" kredit mahsuloti orqali tadbirkorlik tashabbuslari moliyaviy jihatdan ta'minlanmoqda.

Loyihalar Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hamda

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmoqda. Ushbu hamkorlik moliyaviy resurslar bilan birga zamonaviy bilim va tajribani ham jalb etishga xizmat qilmoqda.

Kredit shartlari tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, 28 milliard so'mgacha mablag', 84 oygacha muddat va 24 oylik imtiyozli davr belgilangan. Bu loyihalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Guliston shahrida yosh tadbirkor Bekzod Rahmonqulov tomonidan xususiy maktab va maktabgacha ta'lim muassasasi tashkil etilgani yuqoridagi so'zlariga amaliy misoldir.

— Ustozim bilan hamkorlikda xususiy ta'lim muassasasi ochildi. Loyiha uchun bankdan 4 milliard so'm kredit oldik, — deydi tadbirkor. — Maktabimiz 800 o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, hozirda 600 dan ziyod bola tahsil olmoqda. O'quv jarayoni Prezident maktablari va xalqaro olimpiadalar talablari asosida tashkil etilgan. 2025-yilda Prezident maktabiga qabul qilingan 27 o'quvchining 24 nafari muassasamiz bitiruvchisi hisoblanadi. Shuningdek, "American Kindergarten" nomli bog'chamizda ta'lim muhiti to'liq ingliz tilida yo'lga qo'yilgan bo'lib, tarbiyachilar xalqaro sertifikatlarga ega mutaxassislardan iborat.

Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish maqsadida kredit foiz stavkalari ham muvozanatli belgilangan: davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan yillik 18 foiz, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan esa 23,5 foiz.

Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mazkur tizimli chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

27-mart – Xalqaro teatr kuni



27-mart – dunyo mamlakatlari teatr san'ati xodimlari o'z kasb bayramini nishonlaydigan sana. 1961-yili UNESCO huzuridagi Xalqaro teatr instituti IX kongressida ta'sis etilgan bayram nafaqat sahna ustalari, balki tomoshabinlar, teatrshunoslar, dramaturglar va barcha san'at ixlosmandlari uchun quvunchli kundir.



YANGILANAYOTGAN MADANIY HODISA



Shahribonu IMOMOVA,
“Guliston” va “Teatr” jurnallari birlashgan tahririyati bosh muharriri, “Shuhrat” medali sohibi

Teatr insoniyat sivilizatsiyasi bilan tengdosh san'at turi sifatida azaldan inson ruhiyati, orzu-intilishlari, dard-tashvishlari va yuksak g'oyalarni ifoda etib kelgan. Sahnada hayot. Unda inson taqdiri, jamiyat muammolari, eziglik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurash, muhabbat va vafo, sadoqat va adolat kabi umuminsoniy qadriyatlar aks etadi. Tobora globallashtirib borayotgan dunyoda teatr nafaqat madaniy hodisa, balki har qanday millat ma'naviy immunitetini mustahkamlovchi omilga ham aylanib ulgurdi. Mamlakatimizda milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarni asrab-avaylash, tarixiy xotirani tiklash va yosh avlod qalbidan vatandarparvarlik tuyg'usini shakllantirishda teatr san'ati xodimlari boshqa soha vakillari bilan doimo yonma-yon. Boshqacha aytganda, teatr san'atining yangilanayotgan madaniy hodisa sifatida xalqimiz hayoti, turmush tarzidagi mavqei, ahamiyati ortib bormoqda.

— So'nggi yillarda teatr sohasi ham jadal rivojlanib bormoqda, — deydi Madaniyat vazirligining Teatr, sirk san'ati va kinematografiya sohasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Tursunoy Fayzullayeva. — Teatrlar moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, har bir ijodiy jamoaning unumli ijod qilishi uchun sharoit yaratilmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 22-noyabrda “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori esa sohada yangi bosqichni boshlab berdi. Qarorda o'zbek teatr san'ati ijodiy jarayonini isloh qilishdan tortib, moddiy-texnik baza, kadrlar siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, xalqaro hamkorlik doirasini yanada kengaytirish masalalariga qamrab olingan. Ushbu hujjat ijrosini ta'minlash yo'liga “tarmoq yo'l xaritasi” ishlab chiqilib, ijroga yo'naltirildi. Qaror ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining o'rtta qarori qabul qilindi.

Har bir qarorning tub negizida teatr va teatrstudiyalarni moddiy-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, xodimlar mehnatini rag'batlantirish vazifalari belgilangan. Dramaturglar uchun Mahmudxo'ja Behbudiy, yosh rejissyorlar uchun O'zbekiston xalq artisti va san'at arbobi Bahodir Yo'ldoshev nomidagi mukofotlar ta'sis etilishi ijod ahli uchun kutilmagan voqea bo'ldi.

Mamlakatimizda 41 ta davlat teatri mavjud. Aholi soni 38 millionga yetgan yurtimiz uchun bu kamlik qilishi inobatga olinib, oxirgi yillarda 4 ta yangi teatr tashkil etildi, 3 ta teatr uchun zamonaviy bino qurilib, foydalanishga topshirildi. 2030-yilga qadar barcha teatr binolarini bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Davlat teatrlarining transport vositasi bilan ta'minlanishi, xorijga



ko'proq gastrol uyushtirishi, moliyaviy erkinlik berilishi ularni izlanishga, yangi-yangi spektakllar yaratishga undamoqda.

Teatrdan repertuari boyitish va yangilab turish hamisha birinchi talab hisoblanadi. 2025-yilda teatrlarimizda 173 ta yangi spektakl sahnalashtirildi. Ularning 13 tasi tarixiy mavzuda, 75 tasi milliy va zamonaviy, 85 tasi esa jahon dramaturgiyasining sara namunalari. Milliy qahramonlar, allomalar va sarkardalar obrazini yaratishga alohida e'tibor qaratilyapti. 2025-2030-yillar uchun buyuk tarixiy shaxslarning ibratli hayoti, ijodi, bolaligi va yoshligini ifodalovchi sahna asarlari reja-jadvali tasdiqlanib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o'smirlilik davri gavdalanirilgan spektakllarni yaratish

mo'ljallangan. Shuningdek, “Inson qadri uchun” g'oyasi asosida vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ta'sirchan, dolzarb sahna asarlarini yaratish maqsad qilingan.

Vazirlik tizimidagi davlat teatrlari tomonidan joriy yil davomida 160 ta yangi asarni sahnalashtirish belgilangan. Bu bilan teatr nafaqat madaniy, balki ma'rifiy vazifani ham ado etishi tabiiy. O'zbek Milliy akademik drama teatri rejissori Asqar Xolmo'minov sahnalashtirgan “Adolat fasli”, Muqimiy nomidagi o'zbek davlat akademik musiqali teatrida Doston Haqberdiyev sahnalashtirgan “Qaynona”, O'zbekiston davlat drama teatrida Olimjon Salimov sahnaga olib chiqqan “Romeo va Julyetta”, Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatrida turkiyalik K.Erdilikara tomonidan qo'yilgan “Tentakning yozmalari”, Kattaqo'rg'on shahri drama teatrida Doston Haqberdiyev sahnalashtirgan “Bibixonim” spektakllari tomoshabinlar olqishi va e'tirofiga sazovor bo'ldi.

So'nggi yillarda davlat buyurtmasi bilan O'zbekiston davlat drama teatrida “Ishlaganday bo'laylik”, Andijon viloyati musiqali drama teatrida “Mirzo Ulug'bek”, Namangan viloyati musiqali drama teatrida “Uson Nosir”, Farg'ona viloyati musiqali drama teatrida “Shoh Edip”, Samarqand viloyati musiqali drama teatrida “Layli va Majnun” spektakllari sahnalashtirildi. Ulardagi yangicha ijodiy yondashuv sahna asarlari saviyasi tobora oshayotganini ko'rsatadi.

Poytaxtimizda katta tarixiy yo'lni bosib o'tgan, o'z mavqei va auditoriyasini topib olgan ijodiy jamoalar qatorida Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatri ham bor. “Teatrimiz repertuarini boyitish, zamon talabari asosida yangilashga alohida e'tibor

qaratilmoqda, — deydi teatr bosh rejissori Doston Haqberdiyev. — Davlat musiqali teatrlarining chiroqli binosi hammaga tanish. Bu yerga har kuni teatr shinavandalari kelib, o'z madaniy ehtiyojini qondirib ketadi. Repertuari boyitish uchun ijodiy jamoa doimiy izlanishda. 2025-yil jamoamiz uchun sermahsul va mazmunli bo'ldi, bir qator yangi sahna asarlari namoyish etildi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti bitiruvchi talabalari bilan hamkorlikda Turob To'la qalamiga mansub “Nodirabegim” asarini sahnalashtirdik. Shuningdek, Hamzaning “Maysaraning ishi” asari motivi bo'yicha “Maysara” musiqali komediyasi hamda dramaturg Hayitmat Rasul qalamiga mansub “Kuyovning omonati” asari repertuarimizdan o'rin egalladi.

Gastrol safarlarimiz doirasi ancha kengaydi. Madaniyat vazirligi hamda “Vatandoshlar” jamoat fondi tashabbusi bilan amalga oshirilgan “Sahnalar do'stligi” loyihasi doirasida Qirg'iziston, Qozog'iston va Tojikistonga ijodiy safar uyushtirildi. Qozog'istonning Oqtov shahrida o'tkazilgan TURKSOY III xalqaro teatr festivalida jamoamizning “Qobil ila Hobil” spektakli “Eng yaxshi musiqali drama spektakli” nominatsiyasida g'olib topilishi bizga katta rag'bat bag'ishladi.

Shuningdek, “Inson qadri uchun” ezu g'oyasi asosida Madaniyat va Sport vazirligi bilan hamkorlikda Diyor Keldiyorovning hayot yo'li, faoliyati haqida spektakl sahnalashtirdik.

Teatr san'ati aholining madaniy ehtiyojini qondirishi kerak. Agar spektakl haqiqatan ham ta'sirli va dolzarb mavzuda bo'lsa, teatr zali tomoshabingga to'ladi. O'tgan yili davlat teatrlari tomonidan 3,8 million tomoshabin qamrab olingan bo'lsa, 2030-yilga qadar bu ko'rsatkichni 15 millionga yetkazish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, 200 dan ortiq yangi spektaklni sahnalashtirish, 125 ta davlat teatrlarining xalqaro festival va gastrollarda ishtirokini ta'minlash, xususiy sektor ulushini 30 foizgacha oshirish, sirk tomoshalarini sonini 440 taga yetkazish maqsad qilingan.

Yangicha islohotlar davrida xalqaro hamkorlik faol rivojlanmoqda. Yurtimiz teatrlari ijodkorlari bir-biridan qiziqarli asarlarni dunyo sahnalarida namoyish etdi, faxrlari o'rinni egallab kelmoqda. Ana shunday jamoalardan biri Alisher Navoiy nomidagi o'zbek davlat akademik katta teatridir.



— Teatrimiz ijodiy jamoasi har yili kamida to'rtta milliy, jahon klassik opera va balet asarini sahnalashtirish uchun davlat buyurtmasini oladi. “Alisher Navoiy” va “Bal Maskarad”, “Yevgeniy Onegin”, “Shoir qalbi” operalari hamda “Jaloliddin Manguberdi” “Oqqush ko'li” balet spektakllari davlat buyurtmasi asosida sahnalashtirildi, — deydi teatr rejissori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Haydarali Qosimov. — Teatrlarga davlat buyurtmasi ajratilishi san'at ahlining ham ijodiy, ham moddiy tomondan qo'llab-quvvatlanishidan dalolat. Bizga xorijiy teatrlar tajribasini o'rganish an'anasi kirib keldi. Turkiya, Ozarbayjon, Gruziya, Britaniya, Fransiya, Italiya, Rossiya, Portugaliya, Belarus teatri ijodkorlari bilan hamkorlik o'rnatilib, tajribali rejissyor va rassomlar tomonidan turli spektakllarni sahnalashtirish jarayoni davom etmoqda.

Shu o'rinda davlat teatrlarida sahnalashtirilayotgan spektakllarda qanday g'oya ustuvorlik qilayotgani haqida ikki og'iz to'xtalib o'tsak. Mamlakatimizda islohotlar ko'lami keng, qaysi sohani qaramang, yangilanish nafari, dunyo davlatlari tajribasi shitob bilan kirib kelayotgani hamkorlik o'rnatilib. Demak, xuddi shu nafas, aynan shu ruh sahna ko'chishi kerak. Teatr — zamon ko'zgusi. Sahnada rol o'ynayotgan aktyor, ya'ni qahramon jamiyatning a'zosi, siz bizga hamnafas va yelkadosh insonlardir. Shu bois, zamondoshlarimiz hayoti sahnada namoyon bo'lishi kerak. Xalqaro teatr kuni munosabati bilan har yili 21-27-mart kunlari davlat teatrlarida “Teatr tomoshalarini haftaligi”, “Ochiq eshiklar kuni” o'tkaziladi. Bu ijodiy jamoalarni xalqqa yaqinlashtiradi, ular auditoriyasini kengaytiradi, yangi ijodiy marralarga undaydi.

Teatr — jamiyat o'z holini, tutumini, quvunchiyu og'rig'ini, kecha va ertasini ko'radigan oyna. Sahnadagi har bir obraz, monologu dialoglar aslida tomoshabin ichidagi savollarga javob, ijtimoiy-ruhiy tugun, chigallarga yechim bo'ladi. Shu bois, teatr hech zamon shunchaki ko'ngilxushlik vositasi bo'lmagan. Zero, u hamisha fikr uyg'otgan, savol tashlagan, javob bergan.



Aziza IMOMXO'JAYEVA,
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy ishlar va bolalar sog'lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo'lim boshlig'i

8

TARBIYAGA TA'SIR QILUVCHI KUCH

Respublikamiz bo'ylab “Turon” o'quvchilar teatr jamoalari tanlovi bo'lib o'tmoqda

Uncha olis bo'lmagan o'tmishimizda buni tushungan, anglagan ziyoli ajdodlarimiz — jaded bobolarimiz edi. Ular sahna kuchli vosita, jamiyat ehtiyoji ekanini tushungan holda teatr yaratishga intilgan. Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma'rifatparvarlar millatni uyg'otishdek ezuq maqsad yo'lida pyesalar yozdi, teatr jamoalari tuzdi, spektakllar qo'yd. Ular sahnaga odiy asar olib chiqmagan, bil'aks, jamiyatdagi illatlarga ustalik bilan ko'zgu tutgan: qo'loqlikni, jaholatni, muammolarni obrazga aylantirib, odamlarning o'ziga ko'rsatgan. Teatrning asl mohiyati, vazifasi ham shunda, aslida.

Qadim Rim, Yunon madaniyatida ham, Sharqning uzoq tarixida ham sahna tomoshalari, asarlar asosidagi spektakllar bor edi. Sahnadagi asar orqali zamona kamchiliklari ko'rsatilgan, hajvga olingan, tragediyalaru komediyalar namoyish qilingan, hatto axborot olish va dunyodan xabardor bo'lish vositasi ham bo'lgan.

Bugungi milliy teatrchilgimizning tarixiy asoslariga nazar solsak, 1911-yildan Turkiston hududida dramatik asarlar sahnalashtirila boshlaganidan boxabar bo'lamiz. Ordan ko'p o'tmay, Mahmudxo'ja Behbudiyning mashhur “Padarkush” pyesasi sahnaga chiqdi va qisqa vaqt ichida keng muhokamalar uyg'otdi. Asarda ko'tarilgan masala oila, tarbiya, jamiyat, ta'lim va mas'uliyat haqidagi qarashlarni o'rtaga tashladi.



1914-yilda Toshkentda “Turon” teatr truppasi tuzildi. Abdulla Avloniy boshchiligidagi shakllangan bu jamoa sahnani jamiyatni tarbiyalaydigan fikr maskani sifatida ko'rgan. “Padarkush”, “Baxtsiz kuyov”, “Advokatlik osomni?” kabi asarlar sahnada qo'yilar ekan, ular orqali tomoshabingga ibrat ko'rsatish, muammo haqida o'ylantirish asosiy vazifa bo'lgan. Jadid teatri asarlarida jamiyatdagi real vaziyatlar aks ettirilgan.

Jadidlarimiz niyati ham mana shu ma'rifat o'chog'idan samarali foydalanish, millatni yuksaltirishda sahnani shuur va tafakkurga ta'sir qiladigan kuchga aylantirish edi. Ma'rifatparvar bobolarimiz boshlab bergan sahna an'anasi bugun yangi shaklda davom etayotir. Teatr asta-sekin ta'lim tizimining bir qismiga aylanyapti. Buning ortida esa, shubhasiz, aniq yondashuv va maqsad bor.

2024-yil 1-apreldagi davlatimiz rahbarining “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni bilan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilarining bilimi, tafakkuri, didi va dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan yangi mexanizmlar belgilangan edi. Shu jarayonda teatr alohida vosita sifatida e'tirof etildi. O'quvchilarda estetik qarashni shakllantirish, ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni rivojlantirish, tarixiy obrazlar orqali fikrlashni o'rgatish — ularning barchasi sahna orqali berilishi mumkin bo'lgan eng samarali usullar sifatida ko'riyapti.

Shu asosda yo'lga qo'yilgan “Turon” o'quvchilar teatr jamoalari tanlovi ayni yondashuvning amaliy ifodisiga aylandi. Mahmudxo'ja Behbudiyning tanlov shiori bo'lgan “Teatr — ibratxonadir” degan so'zlari ham bu tashabbusdan ko'zlangan maqsadni yorqin ifodalaydi.

Tanlov qisqa vaqt ichida keng ko'lam oldi. 2026-yil fevral

o'yida o'tkazilgan hududiy bosqichlarda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi 225 ta Prezident, ijod, sport va ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internetlarning teatr jamoalari ishtirok etdi. Bu degani, 2250 o'quvchi sahnaga chiqib, obraz yaratdi, matn bilan ishladi, tomoshabin oldida iste'dodini ko'rsatdi, fikrini ifoda qildi. Har bir jamoa 15 daqiqali sahna ko'rinishi orqali adabiy asarni jonlantirdi, uni o'z talqinida tomoshabingga yetkazdi.

“Turon” tanlovining asosiy qiymati sahnadagi jarayonda, u orqali shakllanayotgan umumiy muhitda ko'rinadi. Hududiy bosqichlarda o'quvchilar o'zbek adabiyotining turli asarlarini sahnalashtirdi. Bunda ular asar matnini jo'ngina yo'q olish bilan kifoyalanmay, uni tushunish, talqin qilish va obrazga aylantirishga intildi. Sahnada har bir detal, harakat, imo ma'no beradi. Shu sabab spektakl tayyorlash mobaynida o'quvchi muayyan asar bilan chuqurroq ishladi, voqeani ichidan tushunishga majbur bo'ladi. Bu esa odiy o'qishdan farqli o'laroq, faol fikrlashga olib keladi. Har bir spektakl kamida o'n nafar o'quvchining birgalikdagi mehnatini talab qiladi. Rollarni taqsimlash, sahna dekoratsiyalarini topish, yaxlitlash — hammasi o'zaro hamjihatlik va mas'uliyatni taqozo etadi. Jarayon esa o'quvchining ijtimoiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Mana shunday kichik, ammo tarbiyaviy, ta'limiy jihatlar ham o'sib kelayotgan avlod uchun juda muhim.

Teatr bugun ham yoshlar tarbiyasida samarali vositalardan biri sifatida o'z ahamiyatini yo'qotgan yo'q va albatta, “Turon” o'quvchilar teatr jamoalari tanlovi ham shu yo'lida xizmat qilishi shubhasiz.

<p>“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM</p> <p>Bosh muharrir: Salim DONIYOROV</p> <p>MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi</p>	<p>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.</p> <p>Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilandali. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-346. 31346 nusxada bosildi.</p> <p>Hajmi — 4 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadordlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.</p> <p>Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.</p>	<p>Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov Musahhib: Akbar Qarshiyev Dizayner: Xurshid Abdullayev</p> <p>Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy</p>
--	--	--	---